

**ОБРАЗОВАНИЕ,**

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ  
В МИРЕ**

**международный научный электронный журнал**

*Выпуск журнала № 59  
Часть-8\_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 8





## INSON SALOMATLIGIGA FOYDALI BO'LGAN MASSAJ TURLARI VA USULLARI

*Muratova Shaxnoza Shuxratovna*

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
“Hamshiralik ishi” kafedrasida yetakchi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson salomatligiga foydali bo'lgan massaj va uning turlari atroflicha muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** kasallik, salomatlik, massaj.

Bugungi kunda inson salomatligiga ijobiy ta'sir qiluvchi massaj turlari mavjud. Ular quyidagilar: Silash-usuli faqat terida bajariladi, juda mayin bu usul, yengil usul hisoblanadi. U bo'shashgan kaft yuzasi bilan bajariladi.

Oddiy usulda silash-qo'l panjasini badanga sal tekizib turib, barmoq uchlari yoki butun kaft bilan teri ustida silanadi.

Ikki qo'l orasida olib silash-massaj qilinadigan sohaning katta kichikligi va shakliga qarab ikkita barmoq yoki butun kaft bilan silab boriladi.

Taroqsimon silash-ikkala qo'l bir birining orasiga kirib turishi kerak. Barmoq yostiqlari bilan teri ustidan taraganga o'xshab silay boshlanadi.

Ishqalash.

Massajning bu turi bo'g'inlar, paylar, boylamlar, nervlarning chikish joylari va boshqa sohalarida o'tkaziladi. Yuza ishqalash- bir bir necha barmoq yordamida yoki bir qo'l bilan, bazan esa ikki qo'l bilan ishqalash usulida massaj qilinadi. Bunda bosh barmoq tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi vaqtda ishqalash shu barmoq yordamida, ko'pincha ikki qo'l bilan bajariladi, ba'zan ikki qo'l bir tomonga qarab yurgizilsa, boshqa paytda qo'llar qarama-qarshi tomonga qarab yurgiziladi. Yuza ishqalashda barmoqlar bilan bosib aylantirib ishqalash ham mumkin. Qattiq ishqalash- o'ng qo'lning bosh barmog'i massaj qilinadigan joyni bosib turadi, ko'rsatkich barmoq bilan o'rta barmoq doirasimon yoki ellipssimon harakatlar qilib, asta-sekin teriga botirila boradi to'qimalarga qattiqroq ta'sir ko'rsatish uchun mush qilingan qo'l panjasining orqa tomoni bilan ishqalash mumkin. Uqalash—asosiy usul bo'lib, mushaklarni, ayniqsa, chuqur joylashgan mushaklarni massaj qilishda qo'llaniladi. Oddiy uqalash—kaft ichki yuzasi bilan 4 barmoq yostiqlari ishtirokida oldinga intilgan holatda bajariladi. Qo'l ustiga qo'lni qo'yib uqalash – massajning ta'sirini oshirish maqsadida ikkinchi qo'l uqalashni bajarayotgan birinchi qo'lning ustiga qo'yiladi. Ikkala qo'l bilan ko'ndalangiga uyqalash—qo'llar massaj qilinadigan sohaga bir-biriga qishiq burchak ostida qo'yiladi, bunda bosh barmoqlar massaj

qilinadigan muskulning biri tomonida, qolganlari boshqa tomonida turadi. Ayni vaqtda massaj qilinayotgan to'qimalar ohista itariladi, ko'tariladi, bosiladi va siqilgandek bo'ladi. Qattiq siqilgan qo'l panjasi bilan soat strelkasi bo'ylab muskullar uqalanadi. Qoqish usullari massaj qilinayotgan joyga ko'p qon kelishini va to'qimalarning oziqlanishi yaxshilaydi. Shapatilash—barmoqlar kaft bir tomonga biroz bukulgan holatda qo'l barmoqlarini bo'shashtirib massaj qilinayotgan soha urib qoqiladi. Kaft qirrasini bilan urish—barmoqlar oralig'i keng ochilgan va bo'shashtirilgan holda jimjiloq qirrasini bilan uriladi. Urush vaqtida boshqa barmoqlar bir biriga tegib ta'sir kuchini oshiradi. Tirsak tomon bilan qoqish—Jimjiloqning tirsak tomoni bilan qoqishda panja yumilib, musht holida turishi kerak, bunda asosiy falanga panja o'zgarishi orqali to'g'rilanib, tirnoq falangasi esa bukiladi. Massaj qiluvchining tirsak bo'g'imi to'g'ri burchak hosil qilib bukulgan bo'lishi kerak. Bu usul silkitib-silkitib qo'yish, titratish va kaftlar orasida mushaklarni asta ezib, dumalatish harakatlaridan iborat. Silkitib-silkitib qo'yish—kaftning jimjiloq, goh katta barmoqlari yordamida bajariladi. Kaft bilan goh jimjiloq, goh katta barmoq tomonga tezlik bilan tebrantirish va silkitish harakatlari bajariladi. Massajchi o'tirgan holatda massaj oluvchining kaftini bilak bo'g'imidan ikki qo'lidan ushlab, ozi tomoniga biroz tortgan holda o'ng va chap tomonga, yuqori va pastga yo'naltirib titratish harakatlarini bajaradi. Kaftlar ichiga olib mushaklarni dumalatish. Bu usul tez bajarilsa, fiziologik ta'siri bilan silkitib-silkitib qo'yish usuliga o'xshaydi. Asta-sekin bajarilsa, mayin uqolashga o'xshab ketadi. Bu usul faqat yelka va son sohalarida qo'llaniladi.

Mahalliy massajning davomiyligi massaj qo'llaniladigan soha massaj turi va massaj maqsadiga bog'liq. Masalan, kaftning katta barmog'i bo'g'imini 2-3 minut massaj qilinsa, tananing orqa qismini 20-25 minut davomida massaj qilinadi.

Mahalliy massaj mukammal bajarilishi bilan umumiy massajdan farq qilinadi. Mahalliy massaj o'tkazilishida barcha massaj usullari ketma-ket (silash, siqish, uqalash, qoqib qo'yish, tebrantirish), qo'llaniladi. Har bir massaj usulining oralig'ida albatta silash usuli o'tkazilishi lozim. Bo'g'implarni massaj qilishda silash usulidan keyin uqalash usuli bajariladi. Harakat mashqlarini bajarishdan oldin, mushaklarning ish faoliyatini oshirish maqsadida, uqalash usullari qo'llanilishi zarur. Mahalliy massaj doimo silash bilan tugatiladi, massaj qilingan qo'l va oyoqlar tortib tebrantirish usuli bilan yakunlanadi. Malakali massajchi massaj oluvchi kishiga moslashtirilgan massaj metodikasini tanlash lozim. Shu bilan birga har bir massaj usulini o'tkazishda umumiy qonunlarga amal qilinadi. Dastlab yuzaki joylashgan to'qimalar, keyin chuqur joylashgan to'qimalar yengil va mayin massaj qilinadi. Muolaja boshlanishida massaj qisqa mudatli bo'linadi. Keyinchalik kuchli va vaqti asta-sekin oshirilib boriladi. Bilakni massaj qilish. Kaft tomondan bilak-kaft usti

bo'g'imidan boshlab massaj qilinadi. Massaj silash, uqalash, yana silash va qoqishdan iborat. Massaj qiluvchi bemor qo'l panjasining tirsak qismini chap qo'li bilan ushlab supinatorlar grupasini ong qo'li bilan tutadi. Massaj qiluvchining bosh barmogi dastlab tirsak suyagi bo'ylab, qolgan barmoqlari esa yozuvchi va bukuvchi muskullar orasidagi pushtalar bo'ylab sirg'anadi. Bosh va qolgan barmoqlar yelkaning tashqi do'ngchasi ostida uchrashadi. Yozuvchi muskuldan so'ng bukuvchi muskullar massaj qilinadi. Massaj qiluvchining bosh barmog'i bilak-kaft ustidan bilak suyagi bo'ylab sirpanadi, qolgan barmoqlari esa tirsak suyagi boylab harakat qiladi, bosh barmoq ichki dongcha oldida qolgan barmoqlar bilan uchrashadi.

Elkani massaj qilish—bikuvchi muskullar sohasini(asosan ikki boshli muskullar), yozuvchi muskullar sohasini (asosan 3boshli muskullar) va deltasimon muskullarni massaj qilishdan iborat dastlab yozuvchi muskullar so'ngra bikuvchi muskullar massaj qilinadi.

Uch boshli muskulni massaj qilish massaj qiluvchining chap qo'li muskulli tirsakka ulanib turgan joyidan ushlagan holatda yuqoriga qarab boradi va bosh barmog'i ikki boshli muskulning tashqi pushtasi bo'ylab, so'ngra deltasimon muskulning ustki qismi bo'ylab silkinadi. Ayni paytda boshqa barmoqlar ikki boshli muskulning ichki pushtasi bo'ylab, so'ngra deltasimon muskul bo'ylab sirpanadi. Barcha barmoqlar qo'ltiqda uchrashadi. Ikki boshli muskulni massaj qilish tirsak bo'g'imini pastidan boshlab qo'ltiqqacha davom etiriladi. Massaj qiluvchining kafti ikki boshli muskul sirtiga jips yopishib turishi kerak massaj qiluvchining bosh barmog'i yelka usti tarnovchisi bo'ylab qo'ltiq tamon silpanadi. Qolgan barmoqlar ikki boshli muskulning ichki pushtasi bo'ylab harakat qilib qo'ltiqda bosh barmoq bilan uchrashadi.



## NARKOZ-SUN'IY BEHUSHLIKNING O'ZIGA HOS JIHATLARI

*Salayeva Shaxnoza Pirnazar qizi*  
*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi*  
*jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada narkoz-sun'iy behushlikning o'ziga hos jihatlari atroflicha muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** narkoz, behushlik, organizm.

Sun'iy chaqiriladigan behushlik ko'pchilik nazdida ham vahimali tuyuladi. «Narkozdan so'ng uyg'onmay qolsam-chi» deguvchilar ham yo'q emas. Xo'sh, aslida ham narkozning afzalligi nimada? Bemor uchun qanday foydasi bor? Zarari-chi? Bu haqida tibbiyot fanlari nomzodi Shavkat Sobirov ma'lumot beradi.

Bu ayni haqiqat! Zero ba'zilar narkoz ham asosiy muolajaga kiritilgan davo chorasi deb o'ylaydi. To'g'ri, narkoz uchun tegishli preparatlar bor. Ammo ular yurak kasalliklari, bosh og'riqlari yoki suyak xastaliklarini davolamaydi. Shunchaki jarrohlik vaqti bemor organizmini himoya qiladi, xolos.

Umumiy narkoz va mahalliy og'riqsizlantirish usullari haqida eshitgansiz. Xo'sh, ikkisinin farqi nimada? Mutaxassislar, hozirda mazkur usullar baravar qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlashsa-da, umumiy narkoz bemorga ham shifokorga ham birdek qulay ekanligini aytishadi. Umumiy narkozda og'riq, noqulaylik va bezovtalik kabilar sezilmaydi. Qolaversa, bemorning hushsizligi shifikor xatti-harakatlari uchun ham qulay. Mahalliy anesteziya esa og'riqsizlantirish ta'siriga ega bo'lsa-da, bemor hushida bo'lib, jarayonni sezib turadi. Muolaja vaqti qaysi usul qo'llanilishi albatta anesteziolog tomonidan hal qilinadi. Bilasiz, jarrohlik rejali, shuningdek shoshilinch tarzda bajarilishi ham mumkin. Albatta, rejali jarrohlikka yo'llanma bo'lganida bemor amaliyotga tayyorlanadi. Qon tahlili, peshob suyuqligi, qon bosimi, yurak qon-tomir faoliyati tekshiriladi. Rejali jarrohlikda bemorga bir kun avval tozalovchi huqna (klizma) qilinadi, engil taom iste'mol qilish buyuriladi. Ertasiga esa amaliyot och qoringa o'tkaziladi. Nega endi to'q qoringa emas, dersiz?! Jarrohlik vaqti turli holatlar yuz berishi mumkin. Bundan tashqari bir kun avval tozalangan organizm amaliyot vaqti kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelmasligidan himoyalaydi. Agar shoshilinch jarrohlik bo'lsa, bemor yoshi, xastaligi, jarrohlik vaqti va umumiy ahvolidan kelib chiqib, anesteziolog va shifokorlar tomonidan zarur choralar ko'riladi.

Tibbiyotda narkozning turlari ko'p. Asosiylari esa apparat maskali (ingalyasiya) narkoz, venaga yuboriladigan total anesteziya hamda endotraxeal

narkoz. Apparat maskali narkoz asosan bolalarda qo`llanilib, uzoq vaqt talab etilmaydigan muolajalarda foydalaniladi. Nafas olish yo`liga yo`naltirilgan narkozda kislorod bilan birga anestetiklar ham yuboriladi. Kattalarda esa venaga yuboriladigan total narkoz turi qo`llaniladi. Shuningdek, ingalyasiya usulini ham qo`llash mumkin, biroq bu usulda kattalar organizmini hushsizlantirish qiyin.

Chindan ham agar muolaja vaqti bemor uyg`onib ketsa yoki bir necha soatga mo`ljallangan jarrohlik uzoqqa cho`zilsa, nima bo`ladi? Anesteziolog bu kabi holatlarining hisobini olgan holda amaliyot vaqti narkozni nazorat qiladi. Narkoz preparatlari birvarakayiga emas, bosqichma-bosqich yuboriladi. Chunki amaliyot vaqtida kutilmagan holatlar ham bo`lishi mumkin. Odatda anesteziolog jarrohlik tugashiga 40 daqiqa qolganida narkoz preparatlari yuborishni to`xtatadi. Bu amaliyot jarayonidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bordiyu jarrohlik vaqtida bemor uyg`onib ketsa, qon ketsa yoki amaliyot cho`zilib ketsa, vaziyatdan kelib chiqib, zarur choralar qo`llaniladi.

Organizmga yuborilgan har qanday preparatning nojo`ya ta`siri bo`lishi mumkin. Jumladan, narkozning ham asoratlari yo`q emas. Narkozni boshidan o`tkazganlar bosh aylanishi, og`rishi, ko`ngil behuzur bo`lishi, uyqusirash kabilardan shikoyat qilishadi. Tibbiyotda bu hodisalar narkozdan keyingi holat deyiladi. Ayrimlar narkozdan keyin sochim to`kildi, tirnoqlarim sinuvchan, xotiram pand berib qolayapti, deydi. Ba`zida esa ruhiy holat o`zgarishlarini ham eshitib qolamiz. Aslida esa ruhiyat va xotira buzilishlariga narkozning dahli yo`q. Soch va tirnoqlar ham bundan emas. Kasallik muolajasidan so`ng yuzaga kelgan bo`lishi mumkin, ammo narkozdan bo`lmaydi.

## SANATORIYA, KURORTLARDA DAVOLANISH VA KURORTLARDA ORGANIZMNI SOG'LOMLASHTIRISH

*Yangibova Dilfuza Yangiboyevna*

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi*

*jamoat salomatligi texnikumi*

*“Hamshiralik ishi” kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanatoriya va kurortlarda davolanish va kurortlarda organizmni sog'lomlashtirish atroflicha muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** sanatoriya, kurort, organizm.

Tabiiy shifobaxsh, kishi salomatligini mustahkamlashda keng qo'llaniladigan bu davolash usuli juda ta'sirchan va muhimdir. Bemor organizmining xastalangan a'zolari faoliyatini qayta tiklash uchun tabiiy omillardan keng miqyosda foydalanilishi sanatoriya-kurort davolash usulining asosiy vazifasidir. Bunday vaziyatda bemorning kasallik tashxisi, kasallik – nafas olish tizimi kasalliklari, yurakqon tomir tizimi kasalliklari, bosqichi va darajasi, uning moddiy imkoniyatlar darajasi, davolanish joyi (sanatoriya yoki kurort manzili, uzoq-yaqinligi) muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kurort – bu iqlim jihatdan doimiy mo'tadil hisoblangan, ta-biiy shifobaxsh vositalarga ega va ularni davo sifatida qo'llashga moslashtirib jihozlangan joylar. Sanatoriya – bemorlar faol dam olishi va davolanishi mumkin bo'lgan, maxsus hayot rejimida olib boriladigan, deyarli barcha fizioterapevtik va tibbiy muolajalarni o'z ichiga olgan, shu- ningdek, iqlim bilan davolash uchun sharoitlar yaratilgan joylar.

Sanatoriyalarda bemorning kun tartibi, faol dam olish vaqti, davolash muolajalar vaqti aniq ajratilgan bo'ladi. Kun tartibiga kiritilgan uyqudan turish, ertalabki gimnastika, nonushta, faol o'yinlar, davolovchi fizioterapevtik muolajalar (davolovchi jismoniy tarbiya massaj, qumli yoki balchiqli muolajalar, ingalyatsiyalar). Tushlik, kunduzgi dam olish (uyqu vaqti), kechki ovqat va tungi uyqu be- morlarga individual ravishda tayinlanadi. Sanatoriya va kurortlarda bemor 14–28 kungacha davolanishi mumkin. Ba'zi sanatoriyalar ixtisoslashtirilgan bo'ladi, masalan, sil (noinfeksiyali bosqichida) yoki umurtqa pog'onasi kasalliklariga moslashtirilgan. Bunday sanatoriyalarda bolalar va kattalar 32–54 va undan ham uzoqroq vaqt davolanishlari mumkin.

Sanatoriya va kurortlar iqlim sharoitlariga va xastalik xusu- siyatlariga qarab ixtisoslashtiriladi. Masalan, nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, hazm qilish a'zolari kasalliklari, asab tizimi kasalliklari teri va allergik



ka- salliklari, buyrak kasalliklari, ginekologik kasalliklariga moslashti- rilgan va jihozlangan sanatoriya va kurortlar mavjud. Ahvoli o'zgaruvchan va keksa bemorlarga mahalliy sanatoriyalarda da- volanish tavsiya etiladi, chunki iqlim o'zgarishi, parhez va yashash sharoitlarining o'zgarishi bemor ahvoliga kuchli ta'sir etishi mum- kin. Og'ir yotgan va yuqumli kasallikka chalingan bemorlar sana- toriyada davolanishi mumkin emas.

Sanatoriya va kurortlarda davolanish, bemor salomatligiga va ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muassasalarning tabiat qo'ynida joylashgani, tog'lar tagida yoki dengiz-daryo bo'yida, atrofidagi ko'kalamzor va sanatoriyaning ichki shinam jihozlanishi, undagi sportiv va madaniy dasturlar inson ruhiyatini tinchlantiradi, quvontiradi va tezroq davolanishiga yordam beradi. Bemorni sanatoriyaga yuborishdan avval uni yashash joyidagi poliklinika shifokori hamda fizioterapevt va sanatoriya komissiyasi ko'rikdan o'tkazadi. Bemorning umumiy ahvoli, kasallik bosqichi va dara- jasi, unga sanator davoning ko'rsatma va moneliklari inobatga oli- nadi. Komissiya xulosasidan kelib chiqqan holda bemor qaysi sa- natoriyada davolanishi aniqlanadi va yo'llanma beriladi.

Homiladorlikning ikkinchi yarmida, yuqumli kasalliklarda, o'sma kasalliklarida, teri-tanosil kasalliklarida, surunkali kasallik- larning retsediv davrida, qon ketishga moyillikda, yallig'lanish ka- salliklarining o'tkir davrida, sanatoriya va kurortlarda davolanish mumkin emas.

Balneologik kurortlar. Balneologik kurortlar, bu hududida shifobaxsh mineral suvlar va tabiiy buloqlar mavjud bo'lgan, bu suvlardan davolashda foydalanish mumkin bo'lgan joylardir.

Shifobaxsh suvlar oddiy chuchuk suvlardan o'zining kimyoviy tarkibi bilan farq qiladi. Shunigdek, suvning harorati, mazasi va hidi bilan ajralib turadi. Mineral suvlar tarkibida organik moddalar, tuzlar, mineral birikmalar, gazlar mavjud bo'lishi, ba'zida radioaktiv, yoki pH ko'rsatkichi bilan ham ajralib turadi. Lekin bu suvlarning asosiy ko'rsatkichi – minerallar, mikro- elementlar, gazlar va tarkibining ionlashganidir. Bu xususiyatlar inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Balneologik kurortlarda bunday suvlarni ichishda, ingalyatsiyalarda, vanna qilishda, yuvinish, bo'shliq a'zolari yuvish (oshqozon, ichaklar, qin bo'shlig'i, siydik qopi va o't pufagini chayishlar)da qo'llash mumkin. Mineral suvlar tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

Karbonat angidridli mineral suvlar.

Vodorod sulfidli mineral suvlar.

Tuzli (xloridli va natriy, kaliyli) mineral suvlar.

Kremniyli mineral tuzlar.

Rodonli mineral suvlar.

Yodli, bromli va organik moddalarga boy mineral suvlar.

Temir-yod-mishyakli mineral suvlar.

Balchiqli kurortlar. Balchiqli kurortlar, deb shifobaxsh balchiqlarga boy, bemorga yoqadigan iqlimga va balchiq bilan davolashga mos jihozlangan sanatoriya va kurortlarga aytiladi. Dengiz yaqinida tor yo‘laklarga o‘xshash uzun suv havzalari, dengizdan biroz do‘nglik bilan ajratilgan limanlar ham balchiq bilan davolashda qo‘llaniladi. Limanlar ichidagi suvlar dengiznikidan ko‘ra konsentratsiyasi yuqoriroq va tubidagi balchiqning tarkibi o‘zgacharoq bo‘ladi. Balchiqlarning shifobaxsh turlari, ularning inson organizmiga ta’siri va muolajalari «Balchiq bilan davolash» bo‘limida keltirilgan.

Iqlimli kurortlar. Bu kurortlarda asosiy davolovchi vosita bo‘lib iqlim xizmat qiladi. Kurort joylashgan yerning (tayga, dengiz yoki daryo bo‘yida, cho‘lda, o‘rmonli joyda va h.k.) ob-havosi, havoning harorat va namligi, kimyoviy-fizik xossalari, hududning metrologik xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Iqlimning bu ko‘rsatkich va xususiyatlaridan foydalanib davolash – iqlim terapiyasi deb ataladi.

Iqlim bilan davolashning quyidagi usullari mavjud:

Iqlimni qisqa vaqt almashtirish.

O‘zgacha iqlimga ega bo‘lgan, shahardan tashqarida joylashgan sanatoriya va kurortlarda dam olish.

Aeroterapiya – havo bilan davolash.

Gelioterapiya – geliy va havo aralashmasi bilan davolash.

Gidroterapiya – suv bilan davolash.

Nafas a‘zolari kasalliklari, yurak-qon tomir, asab, buyrak va siydik chiqaruv a‘zolari, shuningdek, tayanch-harakat sistemasi kasalliklari va kasallikdan so‘nggi holatlarda iqlim terapiyasi keng qo‘llaniladi.

Cho‘l kurortlari. Cho‘l iqlimi issiq va quruq bo‘ladi. Kunduzi quyosh radiatsiyasining intensivligi yuqori bo‘lganligi uchun havo toza va issiq bo‘ladi. Havoning namligi kam bo‘lishi teri va o‘pkaning faoliyatida, suvning bug‘lanib ketishiga va organizm issiqlikni yo‘qotishiga olib keladi. Periferik qonda issiqlik ta’sirida eritrotsitlar soni ko‘payadi. Teridan va nafas yo‘llarining shilliq pardasidan suvning bug‘lanishi moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Bronxlar va o‘pka surunkali kasalliklarida (bronxitlar o‘choqli va bo‘lakli zotiljamda, o‘choqli sil kasalligida), surunkali ekssudativ plevritlarda cho‘l kurortlarida davolanish tavsiya etiladi.

Qon aylanishi buzilishi bilan kechuvchi kasalliklarda, yurak-qon tomir kasalliklarida cho‘l kurortlarida davolanish mamkin emas.

Tog' iqlimli kurortlar. Tog' iqlimida havoning harorati, namligi va kislorod bilan to'yinishi kam bo'ladi. Havo siyrak- lashgan va mussafo, quyosh radiatsiyasi ultrabinafsha nurlarga boy bo'ladi. Tog' iqlimli kurortlar dengiz sathidan qancha balandligiga qarab iqlim xususiyatlari ko'proq yoki kamroq ifodalanagan bo'ladi.

Tog' iqlimli kurortlar quyidagilarga bo'linadi: past tog'li (dengiz sathidan 500–1000 m balandlikda), o'rtacha balandlikdagi tog'li (dengiz sathidan 2000 m balandlikda), baland tog'li (dengiz sathidan 2000 m yuqori balandlikda) kurortlar.

Bunday iqlim organizmga bevosita ta'sir ko'rsatadi, iqlimga o'rganilgan (aklimatizatsiya) sayin nafas birmuncha chuqurlashadi va siyraklashadi. Puls soni kamayadi, qonda eritrotsitlar miqdori ko'payadi, asosiy moddalar va minerallar almashinuvi kuchayadi, uyqu yaxshilanadi.

Baland joylarda bo'lishni hamma kishilar ham, ayniqsa, bemorlar bir xilda ko'tara olmaydilar. Hatto sog'lom odamlarda ham baland joyda «tog' kasalligi» deb ataluvchi kasallik paydo bo'lishi mumkin.

Bronxial astma, o'pka silining ba'zi turlari, suyak bo'g'imlari sili, surunkali bronxit, bronxit asoratlari, pnevmo-skleroz va kamqonlik kasalliklarida tog' iqlimi bilan davolash usulini qo'llash mumkin emas.

Dengiz sohilidagi kurortlar. Dengiz sohilining yumshoq iqlimi organizmga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, asabni tinchlantiradi, inson ruhiy holatiga xotirjamlik va osoyishtalik baxsh etadi. Dengiz sohili iqlimi havo haroratining doimiyligi, quyosh radiatsiyasi intensivligi bilan farqlanadi, havo namligi ham yuqori bo'ladi.

Dengiz bo'yi iqlimi ta'sirida nafas a'zolari faoliyati yaxshilanadi, ichki sekretsia bezlarining funksiyasi kuchayadi, qonda eritrotsitlar soni ko'payadi, arterial bosim pasayadi va me'yurlashadi. Organizmda moddalar almashinuvi va gaz almashinuvi yaxshilanadi. Dengiz bo'yi kurortlarida quyidagi kasalliklarni davolash tavsiya etiladi:

Markaziy asab tizimi funksional kasalliklari.

O'pka sili kasalliklari (og'ir va yuqumli turidan tashqari).

Suyak va bo'gimlar kasalliklari (sil ham).

Surunkali bronxitlar va zotiljamlar.

Bolalarda raxit va ekssudativ diatez kasalliklari.

Og'ir kasalliklardan so'nggi holatlar va qattiq ozib darmonsizlanish va b. O'zbekiston kurort va sanatoriyalari -- O'zbekiston Respublikasida tog'lar, daryolar kam, ko'llar va cho'llar ko'p. Ular ichida mineral suvli buloqlar va havzalar, shifobaxsh davolash vositalariga boy bo'lgan kurortlar aholiga tizimli xizmat ko'rsatmoqda.

Chortoq sanatoriyasi – balneologik kurort bo'lib, Namanagan shahridan 25 km, Chortoqsoy daryosi vodiysida, tog'lar yaqinida joylashgan. Iqlimi yumshoq, bu



kurort hududida qishda  $+1 +4^{\circ}\text{C}$ , yozda esa  $+23 +25^{\circ}\text{C}$  iliq, havoning nisbiy namligi 52 %ni tashkil qiladi. Kurort o'zining mineral suvlari bilan (xloridli, yodli, natriy, kaliyli eritmali), shuningdek, zamonaviy fizi- oterapevtik davolash uchun nihoyatda yuqori darajada jihozlan- ganligi bilan mashhur. Zamonaviy fizioterapiya, lazer bilan da- volash, davolovchi jismoniy tarbiya, massaj, psixoterapiyadan foydala- niladi. Yod-bromli vannalar gipotonik, tomir kengaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Davolash uchun ko'rsatmalar: hazm a'zolari kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, tayanch- harakat a'zolari kasalliklari, ginekologik kasalliklar va teri kasalliklarida.

«Chimyon» sanatoriyasi balneologik kurort bo'lib, Farg'ona shahridan 32 km masofada joylashgan, dengiz sathidan 450 m balandlikda, Oltinsoy daryosi vodiysida. Asosiy shifobaxsh omillari bu – vodorod sulfidli mineral suvlar va balchiqli ko'lning balchig'idir. Vodorod sulfidli van- nalar, chayishlar va boshqa maqsadda foydalaniladi. Sulfidli suvlar odam organizmiga teri, shilliq pardalar va nafas yo'llari orqali ijobiy ta'sir etadi va sog'lomlashtiradi. Davolash uchun ko'rsatmalar: qon aylanish tizimi kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, ginekologik va urologik kasalliklar.

«Kosonsoy» sanatoriyasi – Namangan shahridan 30 km ma- sofada joylashgan bo'lib, iqlimi qishda  $0^{\circ}-3^{\circ}\text{C}$  gacha, yozda esa  $+26^{\circ} - 28^{\circ}\text{C}$  gacha iliq bo'ladi. Davolash kompleksida davo vosita sifatida iqlim bilan davolash, balchiq bilan davolash, gal- vanoterapiya, fizioterapiya, suv bilan davolash, massaj va davolovchi jismoniy tarbiya, parhez va mineral ichimlik suvlar tavsiya etiladi.

«Oqtosh» sanatoriyasi – Toshkent shahridan 65 km maso- fada va dengiz sathidan 1140 m balandlikda joylashgan. Davo- lash omili mussaffo tog' havosi, tog' daryolaridan kelayotgan tog' suvlari juda shifobaxsh xususiyatga ega. Nospetsifik nafas a'zolari kasalliklarida davolanish uchun tavsiya etiladi.

«Chinobod» sanatoriyasi balneologik balchiqli kurort bo' lib, Toshkent shahrida, dengiz sathidan 470 m balandlikda joy- lashgan.

Asosiy tibbiy davo omili Toshkent artezian hovuzining suvlari ( $+5^{\circ}\text{C}$ ), xloridli – gidrokarbonatli – natriyli, ichimlik va tashqi foydalanish uchun (vannalar, chayishlar) qo'llaniladigan suvlar. Bundan tashqari fizioterapevtik muolajalar, massaj, davolovchi jismoniy tarbiya, parhez, balchiqli applikatsiyalar qo'llaniladi. Davo- lash uchun ko'rsatmalar: hazm tizimi a'zolari kasalliklari, ginekologik kasalliklar, teri qoplami kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, nafas a'zolari surunkali kasalliklari remissiyasi davrida.

Shuningdek, Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida da- volash- sog'lomlashtirish komplekslari va sanatoriyalari juda ko'p, ulardan: «Botanika» sanatoriyasi – Toshkent shahridan 30 km masofada, «Umid gulshani» sanatoriyasi Toshkent shahridan 18 km masofada, «Bo'ston» sanatoriyasi – Toshkentdan 30 km

masofada Chirchiq shahrida, «Havotogʻ» sanatoriyasi Sirdaryo viloyatida, «Sitorai Mohi Xossa» – Buxoro shahrining sharqiy qis- mida, «Abu Ali ibn Sino» sanatoriyasi – Samarqand shahridan 50 km masofada, «Zomin» sanatoriyasi – Jizzax viloyatida, «Qashqadaryo sohili» sanoriyasi Qarshi shahrida, «Miroqi» sanatoriyasi Qashqadaryo daryosi vohasida, Shahrisabz shahridan 20 km masofada, «Marhamat» sanatoriyasi – Andijon shahridan 35 km masofada joylashgan.

## MULK IJARASI SHARTNOMASIGA OID NIZOLARNING SUDLARDA KO`RILISHI TARTIBI QANDAY?

*G'afurov Nodirjon Nazrullayevich*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudi sudyasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik sudlarida mulk ijarasiga oid nizolarni ko'rib chiqish tartibiga oid normalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mulk, shartnoma, ijara, nizo.

Mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir shaxsning huquqidir. Bu huquq Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 10-moddasida va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan boshqa halqaro huquq hujjatlarida ham mustahkamlab qo'yilgan. Hozirda respublikamizda mulkni boshqarishning o'ziga xos usullaridan biri bo'lgan ijara munosabatlarini keng yo'lga qo'yish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bo'sh turgan bino yoki inshootni ijaraga olish kichik biznes vakillari va tadbirkorlar uchun eng maqbul yo'l hisoblanmoqda. Tabiiyki, bu jarayonda mulkni ijaraga olish yoki berishning yo'l-yo'riqlari haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish muhim omil sanaladi. Prezidentimizning 2018 yil 25 maydagi "Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2019 yil 1 yanvardan boshlab ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibini o'rnatish orqali ko'chmas mulkni ijaraga berish va tekin foydalanish shartnomalarini majburiy notarial tasdiqlash bo'yicha talab bekor qilindi. Davlat soliq qo'mitasi tomonidan esa "Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi va Adliya vazirligida 2018 yil 11 oktyabrda 3077-son bilan ro'yxatga olindi. Unga asosan, davlat soliq qo'mitasi tomonidan "Ijara shartnomalarini hisobga olish" interaktiv xizmati va dasturiy mahsuli ishlab chiqildi.

Endilikda ko'chmas mulkni ijaraga bermoqchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar o'ziga tegishli bo'lgan turar yoki noturar mulkini ijaraga berishda ikki tomonlama ijara shartnoma tuzishi va shartnomani 10 kun ichida soliq organlarida hisobga qo'yishi shart. Ko'chmas mulk ijara shartnomasi shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin bekor bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, iqtisodiy nizolarning kelib chiqishiga bir nechta omillar ya'ni, shartnomada taraflarning o'zaro huquq va majburiyatlarining buzilishi, ijara to'lovini vaqtida to'lamaslik, bajarish muddatining buzilishi kabilar sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy sudlarda ko'riladigan ishlarning asosiy qismini yuridik shaxslar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar tashkil qiladi.

Bunday nizolar toifasiga mahsulot etkazib berish, oldi-sotdi, pudrat, kredit va hokazolar doirasida tuzilgan shartnomalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni kiritish mumkin. Xo'jalik prosessual kodeksining 24-moddasi, birinchi qismining 4-



bandiga ko`ra, majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi to`g`risidagi nizolar xo`jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Fuqarolik kodeksining 535-moddasiga ko`ra, mulk ijarasi shartnomasi bo`yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.

Demak, ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganligi uchun ijara haqini to`lashi lozim. FK 544-moddasining birinchi qismida ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun haqni o`z vaqtida to`lab turishi shartligi belgilangan.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda iqtisodiy sudga prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar ham murojaat qilishga haqli. Taraflar o`rtasida tuzilgan shartnomada yoki qonunchilikda da`vo arizasi bilan sudga murojaat qilishdan oldin, nizoni sudgacha hal qilish shartligidan iborat bo`lgan qoida belgilanishi mumkin. Jumladan, tadbirkorlik sub`ektlari o`zaro shartnoma tuzishda erkindirlar va shartnomada qonunga zid bo`lmagan qoidalarni mustaqil ravishda va o`z xohishlariga ko`ra belgilaydilar.

Sudga murojaat qilinayotganda da`vo talabi nimadan iborat bo`lsa, ta`minlash chorasi ham shu talabga aloqador bo`lishi lozim. Masalan, qarzni undirish to`g`risida sudga murojaat qilinganda, javobgarning mol-mulki va pul mablag`larini qarz summasiga mutanosib bo`lgan qismini xatlab qo`yishdan iborat bo`lishi chorasi so`rashi mumkin. Shuningdek, nizo mulkni talab qilib olish to`g`risida bo`lsa, javobgar ushbu mulkni begonalashtirishi yoki yo`q qilib yuborishini oldini olishga qaratilgan ta`minlash chorasi qo`llaniladi.

Da`vogar nafaqat da`vo arizasi taqdim etish bilan bir vaqtda, balki hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar ham da`voni ta`minlash chorasini qo`llashni so`rashi mumkin. Undan tashqari, agar hal qiluv qarori qabul qilingan bo`lib, da`vo talabi qanoatlantirilgan bo`lsa, da`vogar da`voni ta`minlashni emas, balki ushbu hal qiluv qarorining ijrosini ta`minlashni so`rab sudga murojaat qilishga haqli.

Ayrim holatlarda bitta da`vo arizasida ikki yoki undan ortiq da`vo talablarini ham ko`rsatish mumkin. Ular o`zaro bog`liq bo`lib, ba`zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo`yicha sudga ko`riladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi rezolyusiyasi bilan ma`qullangan "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" birinchi bo`limining 2-bandida yozilishicha, sud organlari o`zlariga berilgan ishlarni haqiqat asosida va qonunga rioya qilgan holda, kim tomonidan va qanday asoslarga ko`ra bo`lmasin, bevosita yoki bilvosita har qanday cheklovlar, g`ayriqonuniy ta`sirlar, mayl, tazyiq, tahdid yoki aralashuvlarsiz xolislik bilan hal qiladilar.

## YANGI ZAMON IQTISODIYOTINI TAKOMILLASHISH YO'LIDA SUN'IY INTELLEKTNING TUTGAN ROLI VA AHAMIYATI

*Ikromova Madina, Xudoyarov Davron  
Usmonov Jaloliddin, Eshtemirov Suxrob  
QARMII 4-bosqich talabalari*

**Annotatsiya.** Maqolada sun'iy intellektning iqtisodiyotni takomillashtirishdagi ahamiyati va vazifasi o'rganilgan. Jumladan, moliyaviy texnologiyalarning buxgalteriya sohasiga tadbiiq etishga ta'sir qiluvchi muammolar va ularning yechimi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, yangi zamon iqtisodiyoti, innovatsiyalar, FINTECH kompaniyalari, moliyaviy texnologiyalar.

**Аннотация.** В статье исследовано значение и роль искусственного интеллекта в совершенствовании экономики. В частности, рассмотрены проблемы, связанные с применением финансовых технологий в области бухгалтерии, и рассмотрены решения проблем, влияющих на это применение.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, современная экономика, инновации, компании FINTECH, финансовые технологии.

**Abstract.** In the article, the importance and role of artificial intelligence in advancing the economy have been explored. Specifically, issues related to applying financial technologies to the field of accounting and the solutions to problems that impact this application have been discussed.

**Keywords:** Artificial intelligence, the modern economy, innovations, FINTECH companies, financial technologies.

Kirish. Keyingi yillar mobaynida xalqaro standartlarga to'la to'kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi integratsiya jarayonlari chuqurlashtirilayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi, sarmoyador, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlari asosida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Fintech (moliyaviy)-bu moliyaviy muassasalar va kompanoyalarga biznesning moliyaviy jihatlarini boshqarishga ko'maklashadigan texnologiyalar hisoblanadi. Ular sirasiga: dasturiy ta'minot, ilovalar, jarayonlar va biznes modellar kiradi. Shuningdek, Fintexnologiyalar tech tushunchasini banklarga bank-moliya bozoridagi zamonaviy

raqobatchi tarmoq sifatida ko'rish mumkin. Sun'iy intellekt hozirgi paytda odamlar tomonidan amalga oshirilayotgan qarorlarni qabul qilish vazifalarini tobora ko'proq o'z zimmasiga olayotganligi sababli, sun'iy intellekt yanada tubdan o'zgarishlarga imkon beradi. Bunday misol, soliqni maksimal darajada samaradorligini oshirish uchun guruhni global tuzish uchun sun'iy intellektdan foydalanishi mumkin. Tadqiqotchi olim Paulo Xorxe Ribeyroning ta'kidlashicha: Sun'iy intellekt shuningdek, buxgalteriya bo'limlarida, xususan, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditda sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda. AI texnologiyalari ma'lumotlarni kiritish kabi takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin, bu esa buxgalteriya mutaxassislariga ko'proq strategik tashabbuslarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bu sohadagi muhim misol, buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatlarini yaxshilash uchun AI texnologiyalarini joriy etgan bulutga asoslangan buxgalteriya dasturiy ta'minoti kompaniyasiga tegishli. Ular buxgalteriya hisobi bilan bog'liq ko'plab takrorlanuvchi vazifalarni, masalan, ma'lumotlarni kiritish va toifalarga ajratishni avtomatlashtirish uchun mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadilar. Bu buxgalteriya hisobi uchun zarur bo'lgan vaqt va kuchni sezilarli darajada qisqartirdi, buxgalteriya mutaxassislariga ko'proq strategik tashabbuslarga e'tibor qaratish imkonini berdi. Moliyaviy hisobotda AI texnologiyalari odamlarga ko'rinmaydigan naqsh va tendentsiyalarni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassislarga moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi, bu esa ko'proq xabardor qarorlar qabul qilishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sun'iy intellektning buxgalteriya hisobi va audit hamda moliya sohalariga tatbiq etgan holda takomillashtirishga xizmat qiladi. Tahlil va natijalari: "Raqqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq:

- sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun



shart-sharoitlarni belgilovchi Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

- aholi manfaatlarini yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish;

- foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish;

- sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma'lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta'minlash;

- sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish, shu jumladan tovarlarning (ish va xizmatlarning) ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

- mahalliy korxonalar va mutaxassislarining sun'iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, zarur ta'lim muhitini rivojlantirish;

- qo'shma xalqaro tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, respublikamizning nufuzli reytinglar va indekslarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida sun'iy intellekt va uni qo'llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; Shuningdek, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlarini jalb qilgan holda Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha 2021-2022- yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalar ro'yxatiga muvofiq:

- qishloq xo'jaligi sohasida: erni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

- bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil

qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

- moliya sohasida: budjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

- soliq sohasida: yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash masalalariga Hukumat darajasida alohida e'tibor qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda 23 ta bank, 5 ta yirik davlat tashkiloti ushbu tizimdan doimiy foydalanmoqda, ro'yxatdan o'tganlar soni esa 2,5 millionga yetdi. MyID birinchi navbatda shaxsni biometrik identifikatsiyalash imkonini beradi va natijada jarayonga ketadigan vaqtni 1 soniyaga tushiradi, hujjatlarni tekshirish butkul avtomatlashadi. Yana bir o'ziga xos loyiha – qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlari monitoringi loyihasi doirasida kosmosdan va dronlar bilan olingan suratlar, real vaqt rejimida to'planadigan ma'lumotlar asosida dalalar sun'iy intellekt yordamida monitoring qilinib, ularning geoaxborot tizimi yaratildi. Biroq kadrlar muammosi hamon ushbu yo'nalishdagi eng muhim masaladir. 2022/2023 o'quv yilidan "Sun'iy intellekt" yo'nalishida kadrlar tayyorlash bo'yicha jami 6 ta oliy ta'lim muassasalarida 245 ta kvota ajratildi. Shuningdek, alohida "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" doktorantura yo'nalishi ochilganini qayd etish lozim.

Darxaqiqat, mutaxassislar 2030 yilga qadar sun'iy intellekt texnologiyasi bilan 800 millionga yaqin ish o'rinlari almashtirilishini taxmin qilishmoqda. Dastlab, sun'iy intellekt texnologiyasi va ish joyidagi avtomatizatsiya nafaqat pushti va ko'k rangli ishchilarga ta'sir qilgandek edi. Ushbu texnologiya rivojlanib, kuchliroq bo'lib borayotganligi sababli, professional, shu jumladan buxgalterlar, kelajakda o'zlarining martabalari uchun nima bo'lishini va agar sun'iy intellekt o'zlarining ishlarini eskirgan deb hisoblasa, tashvishlana boshladilar. AI texnologiyasi allaqachon soliqni tayyorlash, ish haqi va tekshirishlar kabi ko'plab buxgalteriya funktsiyalarini bajarishga qodir. Xero, Intuit va Sage kabi ko'plab etakchi buxgalteriya dasturlari provayderlari o'zlarining dasturiy ta'minotlariga sun'iy intellect texnologiyalarini kiritdilar, masalan, banklarni solishtirish, hisob-kitoblarni turkumlash, risklarni baholash va audit jarayonlari, masalan, xarajatlarni taqdim etish va hisob- kitoblarni to'lash shular jumlasidandir. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo'yilgan eng asosiy talab — bu uning kam xarajatli va sodda bo'lishligidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, eng avvalo, har bir korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur

o'rganish lozim. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish, kuzatish natijalarini son ko'rsatkichlarida ifodalash, keyin ularni yoppasiga maxsus hujjatlarda aks ettirishni ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda korxonada biznes-rejasini va kelgusidagi strategik dasturlarini tuzishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashi hamda ularning bajarilishi ustidan amaliy ravishda nazorat olib borishi kerak.

**Xulosa:** Hozirgi kunda buxgalteriya sohasida sun'iy intellektning ahamiyati kundankunga ortib bormoqda va buni yanada rivojlantirish va uning rivojlanishi uchun harakat qilishimiz juda ham muhim vazifalarimizdan biridir. Chunki, ushbu globallashtirish zamonida 'sun'iy ong' yetib bormagan sohaning o'zi qolmadi. Shu jumladan, buxgalteriya hisobining zamonaviy avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlarini amaliyotga keng joriy qilinishi moliyaviy texnologiyalar kompaniyalarining ham moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori. "RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA FAN – TA'LIM – ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI " MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA 2023-yil 22-noyabr 799
3. D.R. O'ng'arov, S.Sh. Eraliyeva. Sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
4. O.X. Otaqulov, G.A. Pulatova, G. G.Pulatov. Sun'iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601
5. <https://kun.uz/uz/news/2023/10/26/ozbekistonda-suniy-intellektning-kelajagi-qanday-engsonggi-trendlar-va-voqealarga-nazar>
6. Paulo Jorge Ribeiro. The Impact of Artificial Intelligence on Finance and Accounting Departments. <https://www.linkedin.com/pulse/impact-artificial-intelligence-financeaccounting-paulo-jorge-ribeiro>.



UDK 631.6; 626.8

## THE IMPORTANCE OF SEEDLING CULTIVATION AND THE DEVICE FOR PREPARING POTS FROM BIOHUMUS IN SEEDLING CULTIVATION

*D.Sh.Chuyanov*

*Karshi Institute of Engineering Economics, Professor*

*S.S.Orziyev*

*A doctoral student at the Institute of Natural Resources*

*Management of MTU "TIAME" Bukhara.*

*E-mail: [sorziyev891@gmail.com](mailto:sorziyev891@gmail.com)*

*Phone number:*

*Sardor S. Orziyev: +998906463981*

**Abstract:** In the article, today's demand in the food industry in the world, the work and normative documents carried out for the development of the food industry in our Republic, the importance of cultivation through seedlings in increasing the productivity of kaleyard crops and vegetables, the role of biohumus and peat pots in the cultivation of seedlings, and biohumus (organic fertilizer) is given information about the production line.

**Key words:** Soil fertility, machinery, electricity, root system, oxygen, greenhouses, vegetable and cash crops, homesteaders, wood shavings, food products, peat, organic fertilizer, ingredients, yield, decomposition, nutrients.

**Introduction.** In the agriculture of Uzbekistan, about 60% of kaleyard crops and vegetable crops are grown from seedlings. In our sunny country, it is possible to harvest 2-3 times a year from fruits and vegetables. This is achieved due to cultivation from seedlings and effective use of protected land structures.

The decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for the further development of horticulture and greenhouses in the Republic of Uzbekistan" dated March 20, 2019 No. PD-4246 established the tasks of production of fruit and vegetable products in the off-season in our republic, increasing the volume of exports, and training high-level competitive personnel in the field. In order to provide the population with cheap, high-quality food products, and to increase production, it is urgent to use modern methods of growing kaleyard crops and vegetable seedlings in greenhouses in the Republic [1].

**Materials and methods of research.** Increase and protection of soil fertility. Improving the system of agroservices based on science and innovation. Supplying

raw materials to agro-industrial enterprises and increasing production volume by 1.5 times. Development of agrolistics centers and increasing the number of modern laboratories. Implementation of the national program on seed and seedling cultivation.

Establishing an international agricultural university together with prestigious international scientific centers and higher education institutions. A number of issues such as deepening the integration of science and practice in the agricultural sector have been identified.

In kaleyard and vegetable farming, the growth and development of plants grown from seedlings is observed in comparison with the same plants grown without seedlings. This promotion leads to faster ripening of the plant, better prices of the product in the market and higher economic efficiency. For this reason, many of our farmers know the benefits of growing rice and vegetable crops from seedlings and growing early crops in open fields and greenhouses. But there is a lack of knowledge and experience in the preparation of rice and vegetable seedlings for some farmers and homesteaders [2].

Implementation of the process of growing seedlings in greenhouses with the help of fully scientifically based mechanisms is one of the urgent problems of the industry today [ 3, 4 ].

In the cultivation of seedlings, plastic and polyethylene bags are widely used to grow seedlings with fertilizers. The high price of polyethylene products increases the cost of planting seedlings, which in turn leads to an increase in the price of food products ( Fig.1 ).



a)

a - A pot designed by a peat pot production line.



b)

b - The process of growing seedlings in peat pots developed by the production line of peat pots

**Fig.1 Peat pots in seedling cultivation**

<sup>3</sup> Xelsinki Yaqinlashuv Bitimi (1975-yil) – Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha konferensiyada qabul qilingan, davlatlar o'rtasida chegara o'zgarishlarini taqiqlovchi hujjat.

<sup>4</sup> United Nations Peacekeeping Operations: Principles and Guidelines. United Nations, 2008.

Misol: Falastin-Isroil mojarosida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha BMTning tashabbuslari<sup>5</sup>.

2. Jamoatchilik fikrini shakllantirish: Fuqarolar jamiyati va NNTlar tomonidan tashkil etilgan tadbirlar<sup>6</sup>.

4.7. Hududiy masalalarni hal qilishning muvaffaqiyatli tajribalari

Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi chegaraviy masalalarni hal qilish bo'yicha ijobiy yondashuv.

Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi suv resurslari bo'yicha muvaffaqiyatli hamkorlik<sup>7</sup>.

Afrika davlatlari tajribasi

Efiopiya va Eritreya o'rtasidagi chegaraviy nizolarni hal qilish.

Somali tinchlikparvar missiyasi orqali mojarolarni bartaraf etish.

Yevropa Ittifoqi va NATO tajribasi

Bolqon mintaqasidagi tinchlikni tiklash bo'yicha xalqaro tashabbuslar.

**Xulosa:** Hududiy masalalarni hal qilish xalqaro huquqning o'ziga xos tamoyillariga asoslanadi. Davlatlar o'zaro hurmat, hududiy yaxlitlik va xalqaro qonunlarni hurmat qilish orqali nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar va huquqiy institutlar bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Hududiy masalalarni hal qilishda davlatlarning siyosiy mas'uliyati nafaqat nizolarning yechimini topish, balki mintaqaviy tinchlik va global xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy yondashuvlarning tinch va huquqiy vositalarga asoslanishi xalqaro barqarorlikni mustahkamlaydi.

Hududiy masalalarni hal qilishda siyosiy mas'uliyat davlatning ichki barqarorligi va xalqaro hamkorligi bilan chambarchas bog'liq. Davlatlarning o'zaro ishonch, muloqot va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosati nafaqat nizolarni hal qilishga, balki mintaqaviy va global tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyatining amaliy jihatlari ko'plab mexanizmlarni o'z ichiga oladi: diplomatik muzokaralar, iqtisodiy hamkorlik, huquqiy hal qilish yo'llari, va harbiy vositalar. Ushbu yondashuvlar global va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida qaraladi. Turli davlatlar va xalq

<sup>5</sup> Huntington, S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, 1996.

<sup>6</sup> Safarov, B. Central Asian Water Resources: Challenges and Opportunities. UNESCO Report, 2021.

<sup>7</sup> Shaw, M. International Law. Cambridge University Press, 2017.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buzan, B. Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge University Press, 2003.
2. Smith, K. E. European Union Foreign Policy in a Changing World. Polity, 2013.
3. Boutros-Ghali, B. An Agenda for Peace. United Nations, 1992.
4. Nye, J. Understanding International Conflicts. Pearson, 2009.
5. Keohane, R. After Hegemony. Princeton University Press, 1984.
6. Shaw, M. International Law. Cambridge University Press, 2017.
7. Martens, B. The Political Economy of Regionalism. Routledge, 2000.
8. Dayton Peace Agreement. Bosnia and Herzegovina, 1995.
9. ASEAN Secretariat. ASEAN and the South China Sea Dispute. Jakarta, 2020.
10. SHHT Secretariat. SCO Achievements and Development. Shanghai, 2019.

## MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINING JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI

*Xoliqova Zarifa*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti*

*Universiteti o‘zbek tili ta’limi fakulteti sotsiologiya yo‘nalishi*

*2-bosqich talabasi*

[zarifakholikova01@gmail.com](mailto:zarifakholikova01@gmail.com)

**Annotatsiya:** "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati" mavzusida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat boshqaruvidagi rolini o‘rganadi. U milliy an‘ana va madaniyatlar asosidagi qadriyatlar bilan umuminsoniy huquq, erkinlik, tenglik kabi qadriyatlarning uyg‘unligini tahlil qilib, bu integratsiyaning jamiyatning barqaror rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatiladi. Maqola, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni samarali integratsiya qilishning muhim tamoyillarini aniqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, jamiyat boshqaruvi, uyg‘unlik, davlat siyosati, qonunchilik, barqaror rivojlanish, erkinlik, tenglik, integratsiya.

**Kirish.** Jamiyat boshqaruvi, davlat siyosati va xalqaro munosabatlar kabi sohalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik katta ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar har bir mamlakatning tarixiy, madaniy, diniy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib shakllanadi, ular o‘z xalqi uchun muhim bo‘lgan prinsiplar va e’tiqodlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat uchun umumiy bo‘lib, inson huquqlari, adolat, tenglik, erkinlik kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar xalqaro hamkorlik, tinchlik va barqaror rivojlanishning asosiy poydevori hisoblanadi.

Bugungi kunda global miqyosda yuzaga kelayotgan turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolar milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Mamlakatlar o‘z milliy qadriyatlarini saqlab qolish bilan birga, xalqaro hamjamiyatning umuminsoniy qadriyatlari bilan hamohang ish ko‘rishlari zarur. Bunday uyg‘unlik jamiyat boshqaruvida barqarorlikni, ijtimoiy adolatni, erkinlikni va tinchlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Metod va materiallar:** Maqolada analitik va sintetik metodlar qo‘llanilgan. Materiallar sifatida ilmiy tadqiqotlar, huquqiy manbalar va xalqaro tajriba tahlil qilingan.

**Мuhokama va natijalar:** 1. *Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarning ta'rif:* Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o'zaro farqlanib, jamiyatlarning madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu qadriyatlar tizimi xalqning o'ziga xos tarixiy tajribasiga, madaniy merosiga, ijtimoiy tuzumiga, shuningdek, butun insoniyatga taalluqli bo'lgan umumiy prinsiplar va e'tiqodlarga asoslanadi. Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat jamiyat barqarorligini, ijtimoiy adolatni va tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Milliy qadriyatlar - bu har bir millatning tarixiy, madaniy, diniy va etnik an'analari asosida shakllangan tamoyillar va e'tiqodlar tizimidir. Ular o'sha xalqning o'ziga xosligini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini va turmush tarzini ifodalaydi. Milliy qadriyatlar xalqning o'zligini saqlab qolishi, ijtimoiy birlikni mustahkamlashda va kelajak avlodlarga madaniy merosni yetkazishda katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Milliy qadriyatlar asosan quyidagi omillarga asoslanadi

Tarixiy meros: Millatning uzoq o'tmishi, yirik tarixiy shaxslar va hodisalar, urushlar va inqiloblar, milliy ozodlik kurashlari.

Madaniyat: Millatning san'ati, adabiyoti, musiqa va raqs, arxitekturasi, kulinariya, va boshqa madaniy boyliklari.

Din va e'tiqod: Millatning diniy e'tiqodi, diniy bayramlar va marosimlar, e'tiqodning kundalik hayotdagi o'rni.

Urf-odatlar va an'analar: Oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mehnat va dam olish odatlari, bayramlar va tadbirlar<sup>2</sup>.

Milliy qadriyatlar jamiyatni birlashtirish, millatning o'zini anglashini mustahkamlash va uning taraqqiyotini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, milliy qadriyatlar ba'zan global miqyosdagi umuminsoniy qadriyatlar bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Shuning uchun, milliy qadriyatlarni hurmat qilish bilan birga, global qadriyatlarni qabul qilish ham muhimdir.

2. *Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat boshqaruvida roli.*

I. Milliy qadriyatlar va jamiyat boshqaruvi

Milliy qadriyatlar, o'z millatining tarixiy, madaniy va diniy an'analari asosida shakllangan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishi, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va kelajak avlodlarga madaniy merosni yetkazishda katta ahamiyatga ega.

1. Milliy qadriyatlar va identifikatsiya

<sup>1</sup> Maxmudov, O. (2020). Milliy qadriyatlar va globalizatsiya.

<sup>2</sup> Giddens, A. (2009). Sosial nazariya: Ijtimoiy tizimlar va ularning boshqaruvi.



Milliy qadriyatlar jamiyatning o'zlik va identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'ziga xos til, madaniyat, tarix va urf-odatlar millatni birlashtirish va barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, milliy bayramlar, davlat madhiyalari va madaniy tadbirlar millatning birligini mustahkamlashga yordam beradi. Milliy qadriyatlar jamiyatning uyg'un va to'laqonli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asoslarni yaratadi<sup>3</sup>.

## 2. Milliy qadriyatlarning siyosiy boshqaruvga ta'siri<sup>4</sup>

Milliy qadriyatlar siyosiy boshqaruvda ham o'z aksini topadi. Milliy qadriyatlar siyosatdagi asosiy prinsiplarni, shu jumladan, fuqarolikni, inson huquqlarini va adolatni belgilaydi. Har bir mamlakatda milliy qadriyatlar siyosiy qarorlarni qabul qilishda ko'pincha asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, milliy qadriyatlar asosida tuzilgan qonunlar va normativ hujjatlar, shuningdek, davlat boshqaruvining davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar boshqarilmoqda.

## 3. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik;

Milliy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlar ijtimoiy tizimni boshqarish, fuqarolarni o'z milliy identifikatsiyasiga xos tarzda birlashtirish, ijtimoiy adolatni ta'minlashga yordam beradi. O'zaro hurmat, bir-biriga bo'lgan ishonch va umumiy manfaatlarga asoslangan ijtimoiy tuzum milliy qadriyatlarga asoslanadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar ayrim holatlarda ba'zi ijtimoiy guruhlar o'rtasida nizo va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin<sup>5</sup>.

### 3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, ularni tahlil qilish jamiyatlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizimlarini tushunishga yordam beradi. Quyida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'xshashliklari va farqlari haqida batafsil ma'lumot beraman.

#### I. Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar: Ta'riflar

1. Milliy qadriyatlar bir xalqning tarixiy, madaniy, diniy va ijtimoiy an'alariga asoslangan tamoyillarni ifodalaydi. Bu qadriyatlar xalqning o'zligini, madaniyatini, tili va urf-odatlarini saqlashga yordam beradi. Milliy qadriyatlar har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning tarixiy rivojlanishini va jamiyatdagi umumiy hayotni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>3</sup> Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster

<sup>4</sup> Norris, P., & Inglehart, R. (2004). *Sacred and Secular: Religion and Politics Worldwide*.

<sup>5</sup> Cornell University Press. Ushbu asarda umuminsoniy qadriyatlarning inson huquqlari va ularning siyosiy boshqaruvdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

2. Umuminsoniy qadriyatlar barcha insoniyat uchun umumiy va ulkan ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardir. Inson huquqlari, tenglik, erkinlik, adolat, boshqalarni hurmat qilish kabi qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Bu qadriyatlar xalqaro miqyosda qabul qilingan va barcha odamlar uchun bir xil huquqlarni kafolatlashga qaratilgan.

## II. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'xshashliklari

### 1. Inson huquqlari va adolat

Har ikkala qadriyatlar tizimi ham adolat va inson huquqlariga katta e'tibor beradi.

Milliy qadriyatlar o'z millatining huquqlarini himoya qilishni maqsad qilsa, umuminsoniy qadriyatlar insonning barcha huquqlarini, shu jumladan tenglik, erkinlik va xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Ikki tizim ham ijtimoiy adolatni ta'minlashga intiladi<sup>6</sup>.

### 2. Odamning hurmati va insoniy qadr-qimmati

Umuminsoniy qadriyatlar barcha insonlar o'z huquqlarini hurmat qilishini ta'minlashga intiladi, bu esa milliy qadriyatlarning ham asosiy qismi hisoblanadi. Har bir millatning o'z qadriyatlari ham, umuminsoniy qadriyatlar kabi, odamning qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

### 3. Ijtimoiy tinchlik va barqarorlik

Ikkala qadriyat tizimi ham jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga harakat qiladi. Milliy qadriyatlar o'z millatining ijtimoiy barqarorligini saqlashni maqsad qilsa, umuminsoniy qadriyatlar global miqyosda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

## III. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning farqlari

### 1. Mahalliy va global miqyosdagi qarashlar

Milliy qadriyatlar odatda ma'lum bir xalq yoki millatning o'ziga xos qadriyatlari asosida shakllanadi. Ular o'z xalqining madaniyati, diniy e'tiqodlari, tiliga va urf-odatlariga mos keladi. Milliy qadriyatlar davlat chegaralari doirasida amal qiladi<sup>7</sup>.

### 2. Diniy va sekulyar tafovutlar

Milliy qadriyatlar ko'pincha bir millatning diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, ko'p mamlakatlarda diniy qadriyatlar milliy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Milliy qadriyatlar, shuningdek, o'z millatining diniy an'analari va ritlarini saqlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

### 3. Madaniy o'ziga xoslik va universallik

<sup>6</sup> Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.

<sup>7</sup> Norris, P., & Inglehart, R. (2004). *Sacred and Secular: Religion and Politics Worldwide*.

Миллий qadriyatlar bir xalqning madaniyatiga xos bo‘lib, o‘ziga xos an‘analar, tarix va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular xalqning ajralmas qismi sifatida, ijtimoiy va siyosiy tizimlarida katta o‘rin tutadi.

**Xulosa:** Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik jamiyat boshqaruvida barqarorlik, ijtimoiy adolat va tinchlikni ta‘minlashga yordam beradi. Milliy qadriyatlar xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, umuminsoniy qadriyatlar esa barcha insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni topish jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi uchun zarurdir.

Миллий va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat boshqaruvida o‘zaro aloqada bo‘lib, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlar o‘z millatining tarixiy va madaniy merosini saqlab qolish va shakllantirishda zarur bo‘lsa, umuminsoniy qadriyatlar barcha insonlar uchun tenglik, erkinlik va adolatni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik jamiyat barqarorligini, ijtimoiy tinchlikni va global miqyosda hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.
2. Norris, P., & Inglehart, R. (2004). *Sacred and Secular: Religion and Politics Worldwide*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Donnelly, J. (2003). *Universal Human Rights in Theory and Practice*. Ithaca, NY: Cornell University Press.
4. Sen, A. (2006). *Identity and Violence: The Illusion of Destiny*. New York: W.W. Norton & Company.
5. Parekh, B. (2000). *Rethinking Multiculturalism: Cultural Diversity and Political Theory*. Cambridge: Harvard University Press.
6. Rawls, J. (1999). *The Law of Peoples*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Taylor, C. (1994). *Multiculturalism and "The Politics of Recognition"*. Princeton: Princeton University Press.
8. Kymlicka, W. (1995). *Multicultural Citizenship*. Oxford: Oxford University Press.
9. Harris, J. (2002). *Injustice and the Roots of Political Change*. Oxford: Oxford University Press.
10. Beitz, C. (2009). *The Idea of Human Rights*. Oxford: Oxford University Press.



## МАТЕМАТИКА FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

*Kalimbetova G.K.*

*Мухаммад Аль Хоразмий номидаги ТАТУ*

*Нукус филиали ўқитувчиси.*

**Annotatsiya:** Maqolada dars jarayonida o‘qitishning sifatini oshirish so‘zsiz yangi o‘qitish usullaridan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda. Maqolada dars jarayonida kompyuter texnologiyasi elementlarini ko‘proq qo‘llash, o‘quv jarayonini xilma-xilligini oshirishga yordam berish.

**Abstract:** In the article, the improvement of the quality of teaching in the course of the lesson depends on how to use new teaching methods.

Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib, dars o‘tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o‘tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o‘zini mas‘ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Ta‘limda o‘qitishning sifatini oshirish so‘zsiz yangi o‘qitish usullaridan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda. Yangi o‘qitish usullari talabalarning e‘tiborini ta‘lim jarayoniga jalb eta bilish muhim sanaladi. Bunda albatta talaba doimiy ravishda izlanish va harakatda bo‘lishi lozim, ya‘ni berilgan ma‘lumotlarni ochishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarni aniq masalalar yechishda qo‘llashi lozim.

Ta‘limda axborot texnologiyalarini qo‘llaganda o‘quvchi eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma‘lum bir shart - sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir. O‘qituvchi prezentatsiya slaydalarini ko‘rsatayotgan paytida, har xil rasmlar, formulalar va grafiklarni ko‘rsatishi, ma‘ruzani qisqa va lo‘nda qilib yozdirishi mumkin. Bunda talaba bir vaqtning o‘zida eshitayotgan tushunchalarini ko‘zi bilan ko‘rib ham turadi. Ma‘lumki, axborotning katta qismi ko‘rish orqali olinadi.

Fanning rivojlanishi - faktlarni to‘plash, ularni o‘rganish va tizimlashtirish, umumlashtirish va ayrim qonuniyatlarni ochishdan ilmiy bilimlarning hozirda ma‘lum bo‘lgan faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladigan,

yangilarini bashorat qilishga qodir bo'lgan yaxlit mantiqiy tizimini yaratish yo'nalishida boradi.

Interfaol o'qitish - muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o'quv jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar, ijodiy ishlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Interfaol usullar bo'yicha o'qitish tashkil etish jarayonida o'qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o'quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo'lib, o'quvchilarni fikr yuritish, o'ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo'lishi lozim.

Matematika fanidan o'qituvchilar bilimni nazorat qilish va baholash uchun quyidagi vazifalarni taklif etish mumkin:

**“Aqliy hujum” metodi.** Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga, o'z tasavvurlari va g'oyalariidan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

«Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Mashg'ulotlar jarayonida bu metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash,

ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;

2. Har bir ta'lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tuzilishiga olib keladi;

3. Har bir ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalarga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya) larning shakllanishiga zamin hozirlaydi;

4. Mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikr (g'oya) lari baholanib boriladigan bo'lsa, ta'lim oluvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

**“Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman” metodi.** Sinf o'quvchilari beshta guruhga bo'linadilar, guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkinchi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman» degan so'zlar yoziladi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman» nomli bandga yozib qo'yadi. Ushbu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilganga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. O'quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday harakat o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Keyingi bosqichda o'quvchilarga mavzuga oid matnlar tarqatiladi, ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matn bilan tanishib chiqqandan so'ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirilganini aniqlashlari lozim. O'quvchilar o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim» nomli ustunga yozib boriladi. So'nggi bosqichda o'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va o'quvchilarni yana o'ylashga da'vat etadi. Guruhlardan navbat bilan fikr so'raladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman» nomli ustunga yozib boriladi.



Masalan: matn o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar yakka tartibda (7 daqiqa) matn bilan tanishadilar va qayd etilgan jadvalni to‘ldiradilar.

**“T-sxema” metodi.** T-sxema metodida bahs davomida javoblarni (ha, yo‘q, tarafdor, qarshi kabi) yozib borishda universal grafik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Muammo mavzu doirasi aniqlangandan so‘ng, quyidagi ko‘rinishdagi T-sxemani tuzish kerak:

Tarafdor		Qarshi
	Muammo	

Besh daqiqadan so‘ng sxemaning chap tomonini to‘ldirish lozim. Unda besh daqiqa davomida o‘quvchilar mavzuga oid nechta kategoriya o‘ylab topishgan bo‘lsa, shuncha kategoriya ko‘rsatiladi. Keyingi besh daqiqada o‘quvchilar sxemaning o‘ng tomonini to‘ldiradilar va nihoyat, yana besh daqiqa mobaynida o‘quvchilar o‘zlarining T-sxemalarini boshqa juftlik yoki kichik guruhning T-sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar.

**“Klaster” metodi.** Klasterlarga ajratish - o‘quvchilarga biror mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir.

Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klasterlarga ajratish metodini qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi:

- tarqatma materialda mavzuga oid ochiq so‘z yoziladi;
- o‘quvchilar ushbu so‘z bilan bog‘liq hayollariga kelgan so‘z va jummalarni uning atrofiga yoza boshlaydilar;
- so‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va qoidalar tugaguncha davom etadi.

Klasterga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

1. Hayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e‘tibor bermasdan yozib borish.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e‘tibor bermaslik.
3. Vaqt tugaguncha ko‘proq bog‘lanishlar hosil qilishga harakat qilish.
4. G‘oyalar va so‘zlar sonini cheklab qo‘ymaslik.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, informatika va axborot

texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi va o'zlashtirish darajasini ko'tarishga olib keladi. Interfaol metodlarni o'quvchilarni guruhlariga bo'lib o'qitish orqali ularning o'quv faoliyatini yuksaltirish va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodlarni informatika va axborot texnologiyalari darslarida qo'llash uchun fanning o'qitish xususiyatlarini yaxshi bilish lozim. Ya'ni har qanday Matematika fani o'qituvchisi o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lganidan so'ng, o'qitish xususiyatlarini - fanni o'qitishning dolzarbligi, o'qitish uslubiyotini va usullarini, o'qitish texnologiyasini, darslarda ma'ruza, seminar, amaliyot mashg'ulotlarini qanday tashkil etish kabi malakalarni yaxshi egallagan bo'lishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari. Uslubiy qo'llanma. Akademik S.S. G'ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.; TDIU. 2005. 105-b.
2. I. Isoqov, S.I. Qulmamatov. "Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Ma'ruza matnlari.
3. J. Tolipova, A.T. G'ofurov. Ta'lim jarayonidagi noan'anaviy shakllar. Metodik qo'llanma. -T, 1994. 28-b.

## PSIXOLOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

*Norxadjayeva Nafisa*

*Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti*

### Аnotatsiya:

Mazkur maqolada psixologlarni kasbiy kompetentlikni rivojlantirishi, o'z ustida ishlashi, bilim ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib borishi, ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, ta'lim, dars, kommunikatsiya, tarbiya, kompyuter, innovatsiya.

**Psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish** — bu psixologlarning o'z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, malakalarini yanada takomillashtirish jarayonidir. Kasbiy kompetentlik psixologning bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy sifatleri va etik prinsiplariga asoslanadi. Psixologlar o'z kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish orqali mijozlarga yanada samarali yordam bera olishadi, turli murakkab holatlarda professional yondashuvlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Psixologda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy asoslari:

1. **Bilim va Teoriya:** Psixologlar o'z sohasida chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu bilimlar psixologiya fanining asosiy yo'nalishlari, metodlari va yondoshuvlarini o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun psixologlar o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turishlari lozim, masalan, yangi psixoterapiya metodlarini o'rganish yoki psixologik tahlil va diagnostika vositalarini o'zlashtirish.

2. **Ko'nikmalar va Amaliy Tajriba:** Psixologlarning amaliy ko'nikmalari o'z kasbiy kompetentliklarining muhim qismi hisoblanadi. Bu ko'nikmalar turli metodlarni qo'llash, diagnostik va terapiya usullarini bilish va mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatishda ko'zga tashlanadi. Amaliy tajriba psixologlarning muammolarni hal qilishda, diagnostika va muvozanatni tiklashda, samarali maslahatlar berishda yordam beradi.

3. **Etik Me'yorlar va Axloqiy Qoidalar:** Psixologlar o'z faoliyatlarida etik qoidalarga rioya qilishlari zarur. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda etik prinsiplar, mijozlar bilan munosabatlar, maxfiylikni saqlash, axloqiy va professional javobgarliklarning muhim o'rni bor. Psixologlarning har bir qarori va yondashuvi, mijozlarning huquqlarini hurmat qilish, ularning manfaatlarini hisobga olish kerak.

4. **Shaxsiy Rivojlanish:** Psixologlarning o'zlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari, shaxsiy va professional o'sishga intilishlari muhimdir. Bu, o'z-o'zini baholash, refleksiya qilish va o'z xatolarini tahlil qilish orqali kasbiy o'sishni ta'minlashdir. Psixologlarning shaxsiy sifatleri (masalan, emotsional aql, empatiya, stressga chidamlilik) ularning kasbiy kompetentligini oshiradi.

5. **Innovatsiyalarni Qabul Qilish:** Psixologlar o'z kasbiy faoliyatlarida yangi texnologiyalarni, innovatsion metodlarni va ilg'or yondoshuvlarni qo'llashlari zarur. Bu, masalan, raqamli psixoterapiya, onlayn maslahatlar yoki yangi psixologik baholash vositalarini o'z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yo'llari quyidagicha:

1. **Ta'lim va professional malaka:** Psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun ta'lim va malaka oshirishning katta ahamiyati bor. Ular o'qish, yangi



kurslarga qatnashish, seminarlarda ishtirok etish orqali o'z bilimlarini yangilab turishlari kerak. Shuningdek, psixologlar sertifikatlash tizimidan o'tib, malakali psixolog sifatida tan olingan bo'lishlari zarur.

2. **Superviziya va Mentoring:** Tajribali psixologlar tomonidan beriladigan superviziya va mentoring yangi psixologlarga o'z faoliyatlarini samarali bajarish bo'yicha maslahatlar berishda yordam beradi. Superviziya orqali psixologlar o'z ishlaridagi zaif tomonlarini aniqlab, tajribali mutaxassislardan fikr olishadi.

3. **O'zini Baholash va Refleksiya:** Psixologlar o'z kasbiy faoliyatlarini baholash orqali o'zlarini rivojlantirishga intilishlari zarur. O'z xatolarini va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish, yangi yondoshuvlar va metodlarni sinab ko'rish, doimiy ravishda o'z ustida ishlash kasbiy kompetentlikni oshiradi.

4. **Ko'nikmalarni Rivojlantirish:** Psixologlar o'zlarining professional ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishlari kerak. Bu nafaqat diagnostika va terapiya ko'nikmalarini, balki mijozlar bilan muloqot qilish, stressni boshqarish va vaqtni samarali boshqarish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

5. **Professional Jamoa va Tarmoq:** Psixologlar o'z kasbiy rivojlanishlarida bir-biridan o'rganish uchun tarmoq yaratishlari lozim. Professional jamoalarga a'zo bo'lish, konferensiyalarga qatnashish va boshqa psixologlar bilan tajriba almashish, yangi yondoshuvlar va metodlarni o'rganishga yordam beradi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish psixologlarning mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Ularning bilimlari va ko'nikmalari to'g'ri ishlatilsa, mijozlar o'z muammolarini samarali tarzda hal qilishlari mumkin. Bundan tashqari, psixologning kompetentligi uning kasbiy obro'sini oshiradi, bu esa yangi mijozlar va ish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish — bu uzluksiz jarayon bo'lib, psixologning bilimlarini, ko'nikmalarini, axloqiy me'yorlarini va shaxsiy rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bu jarayon psixologning nafaqat o'z ishini samarali bajarishiga, balki mijozlar bilan muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatishiga, ijtimoiy va professional muvaffaqiyatlarga erishishiga ham yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Psixolog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2006 yil, 6,7 son, 39-modda, 2011 yil 25 son, 260-modda, 2012 yil 33-34 son, 390-modda.

2. Oliy ta'lim muassasalari psixolog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori.

3. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazovatelnoy programmoy. Psixologika. 2003. No 3.

4. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Psixologika. 2004. No 10.

5. Blinov V.I. Prakticheskaya podgotovka budущix uchiteley: progmatika, prespektivy. Moskva. IOO. MONRF. 2008.

## XIZMAT KO'RSATISH SOHANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI TAXLILI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*"Bank ishi" kafedrasida assistenti*

***Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich***

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Buxgalteriya hisobi va menejment fakulteti talabasi*

***Ibragimov Asadbek To'lqin o'g'li***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanish jarayonlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning innovatsion rivoji raqobatbardoshlik darajasini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy omil hisoblanadi.

Maqolada innovatsion texnologiyalarning xizmat ko'rsatish tarmoqlarida qo'llanilishi, davlat tomonidan bu sohani qo'llab-quvvatlash choralari, xalqaro tajribalar bilan milliy amaliyotning o'zaro uyg'unligi hamda xizmatlar bozorida texnologik modernizatsiyaning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shu bilan birga, xizmatlar sohasidagi dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari ham batafsil ko'rib chiqilgan.

Ishda zamonaviy iqtisodiy adabiyotlar, davlat qarorlari va ilmiy tadqiqotlar asosida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola xizmatlar sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar, amaliyotchilar va soha mutaxassislari uchun muhim ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, texnologik modernizatsiya, raqobatbardoshlik, davlat qo'llab-quvvatlashi, xalqaro tajriba, xizmatlar bozori.

### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va xalq farovonligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda xizmatlar sohasi nafaqat ichki bozorni rivojlantirish, balki xalqaro iqtisodiy integratsiyada raqobatbardosh ustunliklarga erishishning ham asosiy manbalaridan biriga aylangan. Mazkur sohaning innovatsion salohiyati va texnologiyalarni keng

joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi, ayniqsa, global raqobat muhitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda xizmatlar sohasining rivojlanishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, jumladan, biznes muhitining liberallashtirilishi, raqamli texnologiyalar joriy qilinishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinib, uning rivojlanish istiqbollari va xalqaro tajriba asosida innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonning xizmatlar sohasida raqamlashtirish jarayonlarini jadal rivojlantirish orqali erishishi mumkin bo'lgan iqtisodiy yutuqlarga alohida e'tibor qaratiladi.

### **Asosiy qism.**

O'zbekistonda xizmatlar sohasiga mujassamlashgan ulkan salohiyatni ruyobga chiqarish, uni milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi rolini keskin oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishdagi mavqegini mustahkamlash ushbu tarmoqni taraqqiyotning an'anaviy modelidan uning innovatsion modeliga o'tishini taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

### **2021 — 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari**

T/r	Xizmatlar nomi	2020 yil		Prognoz (o'sish sur'ati, foiz)			
		hajmi, mlrd. so'm	o'sish sur'ati, foiz	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2020 yilga nisbatan, baravar
	Jami xizmatlar	218 853,5	102,3	120,7	128,6	134,7	2,1
	shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:						
I	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, shu jumladan:	12 885,9	115,3	123,1	133,6	138,6	2,3
1.1.	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	891,7	119,1	125,8	136,3	141,4	2,4
1.2.	Axborot sohasidagi xizmatlar	632,2	157,8	125,7	135,4	140,5	2,4
II	Moliyaviy xizmatlar, shu jumladan:	45 817,2	125,6	122,5	135,2	140,7	2,3



2.1.	Sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha xizmatlardan tashqari	2 333,5	104,7	116,4	129,9	135,4	2,0
III	Transport xizmatlari, shu jumladan:	53 772,5	91,6	120,4	125,9	130,8	2,0
3.1.	Avtotransport xizmati	29 196,6	103,5	121,0	126,5	131,4	2,0
3.2.	Quvur yo'li transporti xizmatlari	9 167,3	89,0	120,3	125,2	130,9	2,0
3.3.	Temir yo'l transporti xizmatlari	7 420,9	111,6	120,5	125,7	130,7	2,0
3.4.	Havo transporti xizmatlari	3 139,2	41,9	120,2	121,8	126,8	1,9
3.5.	Pochta va kurerlik xizmatlari	355,4	77,2	121,0	126,2	130,5	2,0
IV	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 878,5	86,5	128,9	136,3	139,8	2,5
V	Savdo xizmatlari	56 553,9	101,7	119,7	125,8	132,9	2,0
VI	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	6 089,7	91,1	119,5	125,4	133,4	2,0
VII	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	9 073,0	107,4	119,2	128,7	134,9	2,1
VIII	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3 209,4	89,9	128,8	136,0	142,0	2,5
IX	Ijara xizmatlari	4 172,1	98,9	117,9	125,3	131,5	1,9
X	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 407,4	96,1	116,2	124,5	133,0	1,9
XI	Shaxsiy xizmatlar	4 983,3	92,1	116,6	124,5	132,5	1,9
XII	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 925,7	93,7	117,7	123,8	129,8	1,9
XIII	Boshqa xizmatlar: shu jumladan:	8 084,7	98,3	116,9	123,2	130,2	1,9

2021 — 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning innovasion loyihasiga asoslangan maqsadli parametrlari amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi sohani innovasion asosda rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini mantiqiy dalillar asosida asoslab berish zarur.

Birinchidan, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida innovasiyalar fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, kommunikasiyalarning yangi vositalari, xizmatlarning yangi turlari, boshqarishning

va aholi iste'molini qondirishning yangi usullarini qo'llash asosida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini tez va barqaror yuksaltirishga imkoniyat tug'diradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yilning 21 sentyabrida "Mamlakatni innovasion rivojlantirishning strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida bu xususda shunday bayon etilgan: "Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda, iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovasion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi". Shu yuzasidan davlat rahbari 2022-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirishning strategiyasi hamda strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha ko'rsatilgan rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqladi. Innovasion taraqqiyotning natijaviyligi uning inson faoliyatini barcha turlarini va milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini qamrab olish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada xizmat ko'rstish sohasi va uning infrastrukturasi ham milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida, istisno emas. Xizmat ko'rsatish sohada ro'y berayotgan intensiv o'zgarishlar, bir tomondan, xizmatlarga talabning uzluksiz o'sib borayotganligi, ikkinchi tomondan, uni innovasion rivojlantirishni o'tkir zaruratga aylantiradi, qolaversa, ushbu tarmoqning integrasion jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish soha mexanizmlarida innovasiyalarning paydo bo'lishi va amal qilishi ushbu tarmoqda tizimli, bir-biriga uzviy bog'liq va katta ijobiy samara beradigan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, globallashuv jarayonlari jadallashuvining bevosita xizmat ko'rsatish bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovasion taraqqiyot xizmatlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi. Xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning yuqori daromadligidir. O'ylaymizki, aynan uning yuqori daromadliligi va yuqori ijtimoiy samara berish qobiliyati barcha mamlakatlarni uni jadal rivojlantirishga, sohada mujassamlashgan ijobiy jihatlaridan foydalanishga qiziqishini kuchaytirmoqda. Natijada yangi xizmat ko'rsatish ob'ektlar ishga tushirilmoqda, yangi yangi xizmat turlari yaratilmoqda, yangi korxonalar va tashkilotlar tashkil etilmoqda, malakali kadrlar jalb etilmoqda, raqobat kurashida o'z mavqegini mustahkamlashning boshqa innovasion vositalari yaratilmoqda. Innovasiyalar, ularning paydo bo'lishi, joriy qilinishi, amal qilishi xizmatlar bozorida marketologlar va menejerlar mavqegini mustahkamlashning va raqobatbardoshligini oshirishning birinchi darajali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohani taraqqiyotning innovasion yo'lga o'tkazish zarurati mamlakatning ushbu tarmog'ida rivojlanish

sur'atlarining sustligi, turistik salohiyatdan foydalanish ko'rsatkichlarining pastligi, jahon xizmatlar bozoridagi mavqeining zaifligi, xalqaro taqqoslama va tenglashtirishlarda bardosh bera olmayotganligi bilan izohlanadi. Yurtimizda xizmat ko'rsatish sohada bunday holatning yuzaga kelishining sabablari quyidagilarda deb hisoblaymiz: soliq va byudjet siyosatining beqarorligi, xizmat ko'rsatish sohasini tartibga solishdagi xuquqiy-me'yoriy bazaning nomukammalligi, xizmatlar sifatining talabga javob bermayotganligi, narx siyosatining samarasizligi, infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi, investision resurslarning tanqisligi, malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi va boshqalar.

To'rtinchidan, innovasiyalar va ularni keng qo'llash turistik korxonalar va tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Alohida olingan xizmat ko'rsatish korxonasida tashkiliy innovasiyalar (masalan, mehnatni ilmiy tashkil qilish, innovation menejment) jismoniy mehnatni engillashtirishga, ishchi-xodimlar mehnat sharoitini yaxshilashga, qo'l mehnatining jami mehnat sarflaridagi ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish korxonalar yoki tashkilotda texnologik innovasiyalarning joriy etilishi ishchi-xodimlar malakasini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirish, ish haqi daromadlarini ko'paytirish, resurslarni tejash asosida korxonalar yalpi daromadlari va foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, innovasiyalar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Amalda ular foydani ko'paytirish orqali iqtisodiy samarani oshirishning quroli, vositasi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish soha faoliyati serqirra va murakkab bo'lib, innovation jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi qulay makon hisoblanadi. Keskin raqobat muhitida faoliyat olib boruvchi xizmat ko'rsatish korxonasi (menejer) nisbatan yuqori sifatli innovation xizmat yaratish, tannarxni pasaytirish, vaqt birligida xizmat hajmini ko'paytirish, iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish va boshqa tadbirlar orqaligina bozordagi o'z mavqeini saqlab qolishga va uni mustahkamlashga erishdi. Bu esa, pirovard natijada tarmoqda yuqori daromadlilikni ta'minlaydi.

Shu sababli, xizmat ko'rsatish soha faqat innovasiyalardan o'rinli foydalanish evaziga inson faoliyati barcha turlari o'rtasida eng yuqori daromadli soha sifatida mavqeini saqlab qoladi.

Keyingi yillarda iqtisodiyoti ustun rivojlangan G'arb mamlakatlarida innovation jarayonlar ilmu-fan va bilimning kuchli ta'siri ostida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etishda axborot va kommunikasiya texnologiyalarining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning barchasi innovation jarayonlarning yangicha tarmoqli modelini (Systems integration and networking model) qo'llashni taqozo etadi. Ushbu modelda xizmat ko'rsatish soha innovation jarayonning barcha bosqichlarida



integrasiyalashgan ishtirokchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Nazariy izlanishlarimiz natijasida olgan muhim ilmiy natijalardan yana biri shuki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohani innovasion rivojlantirish nafaqat salmoqli iqtisodiy, balki yuqori ijtimoiy samara ham beradi. Xizmat ko‘rsatish sohani ni innovasion rivojlantirish jamiyat uchun ham, tarmoq uchun ham, uning tarkibidagi alohida xizmat ko‘rsatish korxonalar, tashkilot va kompaniyalar uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bizningcha, jamiyat darajasida xizmat ko‘rsatish sohani innovasion asosda rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati, birinchi navbatda, aholi bandligini oshirish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyot sohasidagi adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish sohani innovasion taraqqiyot yo‘li undagi mavjud qo‘nimsizlikni bartaraf etishning va uni barqaror rivojlantirishdagi alohida ahamiyati e’tirof etilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohaga jalb etilgan ulkan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligiga jiddiy salbiy ko‘rsatayotgan omillardan biri – unga xos qo‘nimsizlik ekanligini hisobga olsak, tarmoqni innovasion taraqqiy ettirishning mamlakat miqyosidagi ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyati xususidagi xulosalarimiz ilmiy asoslangan bo‘ladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, xizmat ko‘rsatish sohani innovasion taraqqiy ettirishning jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ahamiyati sifatida uning turistik xo‘jalik sub'ekti yalpi daromadlari va korxonalar ishchi-xodimlari ish haqining ko‘payishi orqali, byudjetga kelib tushadigan daromad soliqlarining ko‘payishi orqali hamda sarf-xarajatlarning tejalishi orqali aholi turmush darajasi va sifatiga ijobiy ta'sirini ko‘rsatmoqchimiz.

Tarmoq miqyosida xizmat ko‘rsatish sohani innovasion rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatini uning tarmoqlararo raqobat kurashidagi raqobatbardoshligini oshirish orqali ushbu tarmoqqa investisiyalar oqimini kengaytirish hamda malakali kadrlarni jalb etishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohada innovasiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatayotgan bir qator omillar borligini ko‘rsatdi. Kelajakda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohada innovasiyalarning unda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini kuchaytirish, rolini oshirish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

- xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida va uning tarkibidagi korxonalarda amalda joriy qilingan innovasiyalarning rolini keskin oshirish;
- innovasion loyihalarni ishlab chiqishda va uni amaliyotga joriy qilishda malakali mutaxassislarni jalb etish;
- xizmat ko‘rsatish sohada innovasion faoliyatni boshqarishda ushbu faoliyatning prinsiplari (tizimlilik, xavfsizlilik, dolzarblilik va ilmiylik);

– xizmat ko‘rsatish sohada innovasion jarayonlarni jadallashtirishda investision resurslarning rolini keskin oshirish.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish sohaning tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan istiqbolli tarmog‘i sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning samarali vositasiga aylandi. Xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (savdo, transport, umumiy ovqatlanish, aloqa, iste‘mol tovarlari, ishlab chiqarish, qurilish va boshqalar) rag‘batlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatib, milliy iqtisodiyotga samara beradi. U aholi bandligi muammolarini hal etish uchun mablag‘larni yo‘naltirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga, xalqaro munosabatlarni kengaytirishga va investisiyalarni jalb qilish orqali tashqi savdo balansini optimallashtirishga imkon yaratib beradi.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning bugungi holati, undagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining pastligi ko‘p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishda ekstensiv omillar rolining yuqoriligi bilan izohlanadi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda aynan ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining pastligini iqtisodiy resurslardan, jumladan investision resurslardan samarali foydalanilmayotganligiga katta e‘tibor qaratdi. Shu sababli, O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish strategiyasini izchillik bilan amalga oshirishga qaratilgan siyosat amalga oshirilmoqda, uning institusional asoslarini yaratishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida iqtisodiyot barcha tarmoqlariga aynan zamonaviy innovasion texnologiyalarni tezkor joriy etish orqali 2030 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasining Global Innovation Indeks Reytingi bo‘yicha jahonning 50 ta ilg‘or mamlakati safiga kiritish vazifasi quyilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasi ham mamlakat milliy iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida makrodarajada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat yo‘nalishlari va tamoyillariga bo‘ysunishi va unga mos siyosat tutishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasisi” to‘g‘risidagi farmonida mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha asosiy strategik maqsadli vazifalar belgalab berildi.

### **Xulosa.**

Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va uning rivojlanish istiqbollari mazkur maqolada keng yoritildi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘rishni jadallashtirish va aholi farovonligini oshirishning strategik omili sifatida baholandi. Sektorning samarali rivojlanishi uchun raqamli

texnologiyalarni keng joriy qilish, xizmat ko'rsatish turlarini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro standartlarga mos xizmatlarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar ushbu sohani xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ko'rsatib o'tildi. Innovatsion yondashuvlar va texnologik yangiliklarning xizmatlar sektorida qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning global iqtisodiy maydondagi o'rnini mustahkamlash uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, mazkur sohada islohotlarni davom ettirish va samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish iqtisodiyotning barqaror va izchil o'sishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014 yil. - 38 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Abdukarimov B.A., Komilova N.A., Abdukarimov F.B. Aktualnie voprosi razvitiya trgovli v Uzbekistane. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. – 96 b.
4. Pardaev M.Q., Oltaev Sh., Pardaeva O.M., Tagirova N.B. Har bir oilada tadbirkorlik – o'zini-o'zi band qilish imkoniyati. Amaliy tavsiya. Samarqand, SamISI, 2018. – 240 bet.
5. Tuxliev I.S. Turizm asoslari: Uslubiy ko'llanma. Samarqand.: SamaISI, 2008.- 247 b.
6. O'rinbaeva Yu.P. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o'zaro bog'liqligi va rivojlanish istiqbllari. Monografiya. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013. – 144 b.
7. Qudratov G'.H., Abdukarimov B.A., Pardaev M.Q. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2016. – 508 bet..



## XALQARO MUNOSABATLAR DARAJASIDA PUL HARAKATI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
"Bank ishi" kafedrasida assistenti*

*Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

*Raximberdiyev Tolibjon To'liq o'g'li  
[raximberdiyevtolibjon90@gmail.com](mailto:raximberdiyevtolibjon90@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Parij kelishuvi, Bretton-Vuds tizimi va Yamayka kelishuvi kabi tarixiy voqealar yoritilib, xalqaro valyuta munosabatlarining zamonaviy tendensiyalari hamda valyutalar almashuv kurslariga ta'sir etuvchi omillar muhokama qilingan. Valyutalarning turli toifalari, jumladan, erkin ishlatiladigan, qattiq va yumshoq valyutalar, shuningdek, xalqaro rezerv valyutalarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola xalqaro iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda valyuta tizimining roli haqida muhim ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Jahon valyuta tizimi, oltin standart, Bretton-Vuds tizimi, valyuta kurslari, rezerv valyuta, erkin valyuta, xalqaro iqtisodiyot.

**Annotation:** This article analyzes the formation and development stages of the global monetary system. Historical events such as the Paris Agreement, the Bretton Woods system, and the Jamaica Agreement are highlighted, alongside discussions on modern trends in international monetary relations and factors influencing exchange rates. Different types of currencies, including freely usable, hard, and soft currencies, as well as the importance of international reserve currencies, are examined. The article provides valuable insights into the role of the monetary system in ensuring the stability of the global economy.

**Keywords:** Global monetary system, gold standard, Bretton Woods system, exchange rates, reserve currency, free currency, international economy.

**Аннотация:** В данной статье анализируются этапы формирования и развития мировой валютной системы. Рассматриваются такие исторические события, как Парижское соглашение, Бреттон-Вудская система и Ямайское соглашение, а также современные тенденции международных валютных отношений и факторы, влияющие на обменные курсы. Освещены различные виды валют, включая свободно используемые, твёрдые и мягкие валюты, а также значение международных резервных валют. Статья предоставляет ценные сведения о роли валютной системы в обеспечении стабильности мировой экономики.

**Ключевые слова:** Мировая валютная система, золотой стандарт, Бреттон-Вудская система, валютные курсы, резервная валюта, свободно конвертируемая валюта, международная экономика.

### **KIRISH.**

Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini tushunish bugungi global iqtisodiy tizimning asosiy jihatlaridan birini tashkil etadi. Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi. Ushbu tizim xalqaro savdo, investitsiya, moliyaviy bozorlar va iqtisodiy aloqalarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Valyutalar o'rtasidagi kurslarning dinamikasi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va moliyaviy barqarorlik xalqaro valyuta munosabatlarida yetakchi omillardan biridir. Bugungi kunda jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi turli bosqichlarni bosib o'tgan va bu jarayon dunyo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Jahon valyuta tizimi to'rt asosiy tarixiy bosqichni boshdan kechirdi: Parij kelishuvi bilan boshlangan oltin standart davri, Genuya konferensiyasi bilan tashkil topgan oltin-deviz tizimi, Bretton-Vuds tizimi va Yamayka kelishuvi natijasida erkin kurs tizimiga o'tish davri. Ushbu bosqichlar davomida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, asosiy rezerv valyutalarning o'zgarishi va dunyo iqtisodiy kuchlarining taqsimoti jahon valyuta tizimiga turli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur maqolada xalqaro valyuta tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari, valyutalar almashuv kurslarini belgilovchi omillar va zamonaviy valyuta bozorining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, erkin ishlatiladigan, qattiq va yumshoq valyutalar hamda xalqaro rezerv valyutalarning o'rnini haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola jahon iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda xalqaro valyuta munosabatlarining dolzarb masalalariga e'tibor qaratadi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI.**

Abdulloyev A.J. [va boshq.]. - Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti. Ushbu kitobda iqtisodiyot va biznes boshqaruvi sohalarida dolzarb mavzular muhokama qilinadi. Asar O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga va moliyaviy barqarorlikka erishishda korxonalar faoliyatining ahamiyatiga oid keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Kitobda iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, iqtisodiy tahlil usullari haqida aniq tushuntirishlar berilgan. Mualliflar O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni va yangi iqtisodiy siyosatlarning amalga oshirilishini batafsil yoritadilar. Ushbu asar o'quvchilarga iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Maqolamda aynan ushbu manba korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash va tushunishga yordam berdi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining (IMF) rasmiy veb-sayti global iqtisodiy holatni baholash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha muhim manbadir. Saytda e'lon qilinadigan iqtisodiy prognozlar, analitik materiallar va hisobotlar global iqtisodiyotning bugungi holati va kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini yoritadi. Jamg'arma tomonidan taqdim etilgan resurslar mamlakatlar va korxonalariga iqtisodiy siyosatni shakllantirishda yordam beradi. Aynan shu manba maqolada moliyaviy siyosat va iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi global omillarni tahlil qilishda qo'llanildi. IMF ma'lumotlari orqali xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va ular O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilishi haqida aniq tushuncha hosil qilindi.

Officer L. Gold Standard, 2001. Ushbu kitobda oltin standartining tarixiy rivojlanishi va uning xalqaro iqtisodiy tizimlarga ta'siri to'liq yoritilgan. Muallif oltin standartining iqtisodiy o'sish, moliya bozorlari va xalqaro savdo bilan bog'liq asosiy jihatlarini tahlil qiladi. Ushbu asar oltin standartining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va uning xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgaruvchanlikni qanday boshqarish mumkinligini yoritadi. Maqolada aynan bu manba orqali oltin standartining xalqaro moliyaviy tizimlarga ta'siri va ularning korxonalariga qanday yomon yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun foydalanildi. Kitob, shuningdek, oltin standartining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri haqida keng qamrovli tahlilni taqdim etadi.

## NATIJALAR

Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi. Hozirga qadar jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi to'rt bosqichni bosib o'tdi.

**Birinchi jahon valyuta tizimi** 1870-yilda Parijda bo'lib o'tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi. Bunda oltin standarti joriy etildi va oltin yagona xalqaro to'lov vositasi sifatida e'tirof etildi. Ammo 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishi oltin standartidan foydalanish amaliyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1914- 1915-yillarda dastlab Buyuk Britaniya, keyin esa, qolgan YEvropa davlatlari oltinni eksport qilishni chekladilar. AQSH urushga kech qo'shilganligi uchun mazkur cheklov 1917-yilda joriy etildi. Buyuk Britaniya funt sterlingdagi xalqaro to'lovlarni to'xtatdi. Import qilingan oltinlarning barchasi Angliya Markaziy bankining zahirasiga olini boshladi.

1922-yilda Italiyaning Genuya shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada **Ikkinchi jahon valyuta tizimi** yuzaga keldi. Uning muhim natijasi bo'lib, oltin-deviz standartining joriy etilganligi hisoblanadi. ya'ni, oltin bilan birga, 30-ta mamlakatning milliy valyutasiga xalqaro to'lov vositasi maqomi berildi. Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi haqiqatda Buyuk Britaniyaning funt sterlingi standartiga aylandi. Ya'ni, funt sterling asosiy rezerv valyutaga aylandi. Bu esa,



quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Birinchi jahon urushi paytida funt sterling boshqa YEvropa valyutalariga nisbatan kam darajada qadrsizlandi (20%). Qolgan YEvropa valyutalari, xususan, Fransiya franki 80 foizgacha qadrsizlandi. Holbuki, Fransiya franki yetakchi valyutaga aylanishga da'vogarlik qilayotgan edi.

2. XX asrning 20-yillarida Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi. Boshqa davlatlar Angliya bilan savdo-sotiq qilib funt sterling ishlab olish imkoniyatiga ega edi. Bu vaqtda AQSH yopiq iqtisodiyotga ega edi.

3. Angliya banklari bu davrda keng tarqalgan xorijiy filiallarga ega edi. AQSH banklari esa, xorijiy filiallarga deyarli ega emas edi.

4. XX asrning 20-yillarida Angliya banklari tomonidan xalqaro savdoning 60 foizgacha qismi moliyalashtirilar edi. Yuqorida qayd etilgan sabablar Buyuk Britaniya funt sterlingning dunyo miqyosida xalqaro zahiralari hajmidagi salmog'ining oshishiga olib keldi. 1913 yilda dunyo bo'yicha xalqaro valyuta zahiralari 47 % i funt sterlingga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1928 yilda ushbu ko'rsatkich 77 % ni tashkil etdi.<sup>1</sup> Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi ham bir qator sabablarga ko'ra, inqirozga uchradi. Ushbu sabablardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Buyuk Britaniya hukumati tomonidan Birinchi jahon urushidan keyin deflyasion siyosatni olib borilganligi. Deflyasion siyosat funt sterlingning oltinga nisbatan paritetini urushdan oldingi darajaga yetkazish maqsadida amalga oshirildi. Ammo ushbu siyosat kutilgan natijani bermadi va aksincha, valyutaviy inqirozga olib keldi. Buning sababi shundaki, Buyuk Britaniya funt sterlingning qat'iy belgilangan kursini saqlab turdi. Bu vaqtda, ularning tashqi iqtisodiy hamkorlari bo'lgan mamlakatlar devalvatsiyani amalga oshirdilar. Natijada Buyuk Britaniyaning tashqi savdodagi raqobatbardoshligi keskin pasaydi va to'lov balansining defitsiti miqdori oshdi. Fransiya, Germaniya va Belgiyaning milliy valyutalari Birinchi jahon urushida yuqori sur'atda devalvatsiyaga uchraganligi sababli ularning kursi past darajada qoldi.<sup>2</sup>

Buning natijasida mazkur mamlakatlarda to'lov balansida katta ijobiy saldo yuzaga keldi va oltinni katta miqdorda oqib kelishi yuz berdi.

2. Birinchi jahon urushidan keyin AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya Markaziy banklari tomonidan sterilizatsiyalashgan valyuta intervensiyasini amalga oshirilganligi. Buning natijasida Markaziy banklarning foizli daromad keltiruvchi ichki aktivlarining yillik o'zgarishi yuz berdi va u oltinning taklifini keskin qisqartirdi.

<sup>1</sup> Officer L. Gold Standart, 2001 maълумотлари.

<sup>2</sup> Officer L. Gold Standart, 2001 maълумотлари.

3. Markaziy banklar o'rtasida xalqaro rezervlarning notekis taqsimlanishining yuzaga kelganligi. Oltin-deviz standartini birinchi bo'lib Kanada 1929 yilda tark etdi.

1944 yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya natijasiga ko'ra **Uchinchi jahon valyuta tizimi** tashkil topdi. Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda qat'iy belgilangan kurs tizimi joriy qilindi. Milliy valyutalar paritetidan 1 foizgacha tebranishi mumkin edi. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida yuzaga keladigan valyuta riski muammosiga barham berildi.

2. AQSH dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi.

3. Yangi rezerv aktiv – qarz olishning maxsus huquqi (SDR) yaratildi. SDR sun'iy valyuta bo'lib, XVFGa a'zo mamlakatlar o'rtasida, ularning Fondagi kvotasiga qarab taqsimlanadi va xorijiy valyutalar sotib olishda, kreditlar berishda va davlatlar o'rtasidagi to'lovlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Ammo haqiqatda Uchinchi jahon valyuta tizimi AQSH dollari standartining gegemonligiga aylandi. Buning quyidagi sabablari mavjud edi:

1. AQSHning Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon tovar bozorlarida raqobatchilari yo'q edi. Germaniya, Italiya, Yaponiya urushda mag'lubiyatga uchradi, YEvropaning qolgan davlatlari ham urush natijasida xonavayron bo'ldi. Bu esa, AQSHning tovarlar eksporti hajmini oshirish imkoniyatini keskin oshirdi.

2. AQSH «Marshall rejasi»ga asosan YEvropaga 13 mlrd. dollar miqdorida kreditlar va moliyaviy yordam ko'rsatdi. Ushbu mablag'larni berish evaziga AQSH Yevropa davlatlariga uskunalarni AQSHdan sotib olish va mahalliy xom-ashyo bazalariga AQSHni kiritish shartini qo'ydilar.

3. Ikkinchi jahon urushidan keyin XX asrning 50-yillariga qadar AQSH dollarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida uning devalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini olib bordi.

4. AQSH dollarini cheklanmagan miqdorda oltinga qat'iy belgilangan baho bo'yicha almashtirish joriy qilingan edi. Bunda 1 unsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilangan edi.

XX asrning 60-yillariga kelib, AQSHda pullar taklifining keskin oshishi natijasida inflyasiyaning kuchayishi yuz berdi. O'z navbatida, pullar taklifining keskin oshishi ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi va davlat byudjeti defitsitini AQSH FZT kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi oqibati edi. Ayniqsa, Vetnamdagi urush AQSH davlat byudjeti defitsitining keskin oshishiga olib keldi. Yuqorida qayd etilgan holatlar qat'iy belgilangan kurslar tizimining barham topishiga olib keldi. Bundan tashqari, XX asrning 60-yillariga kelib, Yevropa

davlatlari katta eksport salohiyatiga ega bo'ldi va buning natijasida ularda katta miqdorda AQSH dollari to'plana boshladi. Bunday sharoitda dollarni oltinga almashtirib berishni davom etishi AQSHning oltin zahiralari keskin kamayishiga olib kelar edi.

1976-1978 yillarda YAmaykada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning natijalariga ko'ra, **To'rtinchi jahon valyuta tizimi** tashkil topdi. Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Qat'iy belgilangan kurslar tizimi bekor qilindi va natijada barcha valyutalarni erkin suzish tizimiga o'tkazish tavsiya qilindi. AQSH dollarining oltinga almashtirib berish tartibining bekor qilinishi bilan qat'iy belgilangan kurslar tizimi barham topdi.

2. Germaniya markasi va Yaponiya ieniga xalqaro rezerv valyutalar maqomi berildi.

3. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallandi. Ya'ni, oltindan xalqaro munosabatlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish ta'qiqlandi.

4. SDRning xalqaro to'lov vositasi sifatidagi rolini oshirishning zarurligi asoslandi. SDRning o'z qiymati bo'lmaganligi sababli, uning qiymati valyuta savati bo'yicha aniqlanadi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining hozirgi, zamonaviy bosqichida AQSH dollari va yevro yetakchi rezerv valyutalar bo'lib turibdi. Ammo har ikkala rezerv valyutaning almashuv kurslarining nobarqarorligi xalqaro valyuta munosabatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Valyuta kursiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday asosiy omillardan biri bu - to'lov balansining defitsitli ekanligidir. To'lov balansining defitsitli bo'lishi xorijiy valyutadagi to'lovlar miqdorining ortishiga, mamlakatning oltin-valyuta zahiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifining kamayishi yuz beradiki, ushbu holat milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli tazyiqni yuzaga keltiradi.

Milliy valyuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri bo'lib, Davlat byudjetining defitsiti hisoblanadi. Ushbu omil rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida yaqqol kuzatiladi. Chunki, mazkur mamlakatlarning aksariyat qismida Markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqillik darajasi past bo'lib, Davlat byudjeti defitsitini qoplash maqsadida Markaziy bankning emissiya mexanizmidan foydalaniladi. Buning natijasida muomalaga tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullar paydo bo'ladi va shuning asosida milliy valyutaning 30 qadrsizlanish jarayoni chuqurlashadi. Shu sababli, Davlat byudjeti defitsitining me'yoriy darajada bo'lishini ta'minlash milliy valyutaning barqarorligiga erishish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda Davlat



bdyujeti defitsiti summasining nominal YAIM miqdorining 3 foizdan oshmasligi me'yoriy daraja sifatida qabul qilingan. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat milliy valyutaning almashuv kurslariga, shu jumladan, nominal almashuv kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Ma'lumki, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Restriksion monetar siyosat.
2. Ekspansionistik monetar siyosat.

**Restriksion monetar siyosat** deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Restriksion monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarining darajasi oshiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;
- Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo'lgan vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari depozit hisob raqamlariga jalb etiladi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

**Ekspansionistik monetar siyosat** deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;
- tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya'ni, banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi.
- Markaziy bankning majburiy zahira stavkalari pasaytiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Restriksion monetar siyosat milliy valyutadagi pul massasining o'sish sur'atlarini pasaytirish va hatto uning hajmini qisqartirish imkonini beradi. Buning oqibatida milliy valyutaning qadri oshadi.

Ammo restriksion monetar siyosat ichki to'lovga qobil talabni bo'g'ib qo'yadi.

Natijada makroiqtisodiy o'sish sur'ati pasayadi. Ekspansionistik monetar siyosat ichki to'lovga qobil talabni rag'batlantirish imkonini beradi.

Natijada pul massasining yuqori sur'atlarda o'sishi, multiplikativ kengayishi yuz berishi mumkin.

Siyosiy risk, ya'ni, mamlakat riski milliy valyutaning nominal almashuv kursini o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Odatda, siyosiy risk chuqurlashganda mamlakatdan oltin-valyuta zahiralarini katta miqdorda chiqib ketishi yuz beradi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifi kesik kamayadi, to'lov balansining defitsiti ortadi. Oqibatda milliy valyuta qadrsizlanadi. AQSH dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zahiralarining asosiy qismi AQSH dollarida shakllangan. Shu sababli, 1999-yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQSHga dollar, yevro va ienning kurslarini o'zaro bir biriga bog'lashni taklif qildilar. Ammo AQSH Federal zahira tizimining o'sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat'iy rad etdilar. Ularning fikriga ko'ra, mazkur uch etakchi valyuta kurslarini o'zaro bir-biriga bog'lashni joriy etish AQSH Federal zahira tizimining ishsizlik va inflyasiyaga qarshi kurashishga qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur yetkazadi. "Evrohudud"dagi qarz muammolari, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og'ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, evroning AQSH dollari va boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan kursining tebranishlariga va pasayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Gretsiyadagi og'ir iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilayotgan kreditlar va boshqa shakllardagi moliyaviy mablag'lar yevrodagi pul massasining oshishiga sabab bo'lmoqda.

2010-yil 7-mayda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning rahbarlari tomonidan Gretsiyaga moliyaviy yordam berish dasturi ma'qullandi. Ushbu dasturga muvofiq, Gretsiya uch yil mobaynida 110 mlrd. yevro oladi. Mazkur yordamning Gretsiya uchun muhimligi shundaki, hozirgi kunda ushbu mamlakatdagi iqtisodiy ahvol juda og'ir: davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulot (YAIM) miqdoridan katta, davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzning umumiy miqdori 300 mlrd. evrodan oshadi. 2012-yilda Kiprda moliyaviy qiyinchiliklarning boshlanganligi yevroning nominal almashuv kursi barqarorligiga nisbatan mavjud bo'lgan salbiy ta'sirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi va uning shakllanishi hamda rivojlanishi tarixiy jarayonlar orqali to'rt bosqichni o'tgan. Birinchi jahon valyuta tizimi oltin standartiga asoslangan bo'lsa,

Ikkinchi jahon valyuta tizimi oltin-deviz standartini joriy etdi, ammo funt sterlingi dominant valyutaga aylandi. Keyinchalik, AQSHning iqtisodiy ustunligi bilan Uchinchi jahon valyuta tizimi shakllandi, bu tizim AQSH dollari va funt sterlingining hegemonligini ta'minladi. To'rtinchi jahon valyuta tizimi esa erkin suzuvchi valyutalar va SDRni qo'llab-quvvatlagan holda, jahon iqtisodiyotida yangi valyutalarning roli oshganini ko'rsatdi.

Xalqaro valyuta tizimi rivojlanishining muhim bosqichlari, shuningdek, milliy va xalqaro rezerv valyutalarining o'zgarishi, ayniqsa AQSH dollari va yevroning dominantligi, hamda valyuta kurslarining barqarorligini ta'minlash muammolari bilan bog'liq. Hozirgi kunda global valyuta tizimida erkin ishlatiladigan valyutalar, qattiq va yumshoq valyutalar, shuningdek, xalqaro rezerv valyutalari mavjud. Bularning barchasi, dunyo iqtisodiyotidagi valyuta risklari va iqtisodiy siyosatlarning global ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, valyuta bozori va valyuta kurslari tizimining o'zgarishi, ularni aniqlash mexanizmlari, milliy valyutaning stabilizatsiyasi va xalqaro savdoni amalga oshirishdagi o'zgarishlar jahon iqtisodiyoti uchun muhim omillar sifatida qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulloyev A.J. [va boshq.] .- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2021. -360 b
2. [www.imf.org](http://www.imf.org).
3. Officer L. Gold Standart, 2001
4. Musgrave, R., & Musgrave, P. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill.
5. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. Palgrave Macmillan.
6. Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Monografiya. – T.: "Iqtisod-moliya", 2011. – 172 b.
7. Muxammedov M. va boshqalar "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari"- S.: Zarafshon 2017.-299 b.



## ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

*Safarova Aminaxon Sadulla qizi*

*DTPI Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida so'z boradi va sabalari o'rganib chiqilgan. Ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich sinlarda pedagogik fan sifatida tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** metod, ko'nikma, malaka, grammatika, imlo, nutq o'stirish, sinfdan tashqari o'qish, psixologiya, psixolingvistika, didaktika, fonetika, fonologiya, leksikologiya, so'z yasalishi, morfologiya.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

Ona tili metodikasi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning izchillik va uzluksizligini ta'minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida, asosan, bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfdan o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi. nlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiquan (muvofoiq ravishda) o'rgatadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfdan va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarini bartaraf etish usullarini topadi.

Ona tili o'qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma'lum otlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida — fikmi bayon qilish turlarini belgilovchi omillar, „nutqni qabul qilish signallari“ apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tom ondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tom ondan ishlab bergan ma'lumotlariga tayanadi.

Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotenilik, jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tom onidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning shunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab radi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, grammatika — morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid m a'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p m a'noli so'zlar, ularning m a'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning o'quvchilarga ta'sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va sujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur. O'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularni yaxshi niyatli, insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda adabiyot fani bilan ona tili mashg'ulotlari o'rtasidagi uyg'unlikni tashkil etishning ahamiyati kattadir. Ona tili va adabiyot fanlarining uyg'unligi o'quvchilarning qalbi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, yaxshi-yomonni farqlashga, voqea-xodisalarga o'z shaxsiy nuqtai nazaridan yondashishga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi Markaziysidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.. Ona tili o'qitish metodikasi ( Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik ) – Toshkent : 2009
2. Xaitov X.. Ona tili o'qitish metodikasi ( O'quv qo'llanma ) – Buxoro : 2022
3. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova M. Ona tili o'qitish metodikasi ( Darslik ) – Toshkent : 2012
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

*Sharipova Adiba Botirjon qizi*

*DTPI pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlarning turlari haqida so'z boradi. Metod turlarining o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar :** tushuntiruv-bayon qilish, suhbat, analiz-sintez, mustaqil ish, induktiv, deduktiv metodi, kakografiya, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat metodi .

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida tushuntirishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz - tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan

grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi.

Induksiya metodida o`quvchilar o`qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta`riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o`quvchi tayyor qoida - ta`rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Tilning o`ziga xos nafosatini o`quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta`limida an`anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so`rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo`ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so`zi lotincha "kakos" – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so`laridan olingan bo`lib, muayyan maqsadni ko`zlab xatoliklarga yo`l qo`yilgan matnni tuzattirish orqali o`quvchilarga imloni o`rgatish usuli sanaladi. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo`yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O`quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo`qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo`limlari bilan bog`liq amaliy darslarni o`tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o`quvchilarga unli va undosh tovushlar bo`yicha yetarlicha ma`lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari" da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e`tibor so`zlarning aytilishi va yozilishi o`rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribadan ma`lumki, o`quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o`zlashtirmaydilar. So`zlarni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o`quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya soladi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so`zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo`ladi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O`zbek tilining imlo qoidalari" dagi "Ayrim unli va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma`lumotlar mavzular o`tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So`zlarni o`qing, xato yozilgan o`rinlarni topib, o`zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to`g`rilang va daftaringizga ko`chirib yozing.

Kakografik yo`nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin: □

-O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi; □

- O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;

-Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

-Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Kakografiyaning yana bir ko'rinishi: matn ichida noto'g'ri berilgan so'zlarni to'g'rilashdan iborat. Gaplarni o'qing, noto'g'ri yozilgan so'zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko'chirib yozing.

Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.. Ona tili o'qitish metodikasi ( Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik ) – Toshkent : 2009
3. Xaitov X.. Ona tili o'qitish metodikasi ( O'quv qo'llanma ) – Buxoro : 2022
4. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## CORRECTING VOCABULARY MISTAKES WITH FUN ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH

*Abdulahatova Iroda Sobir qizi*

*The teacher of specialized school №116*

**Abstract.** This article explores innovative and fun activities aimed at correcting vocabulary mistakes in language learners. By leveraging engaging methods, teachers can create a more dynamic learning environment that fosters effective vocabulary acquisition and retention.

**Key words:** Thematic grouping, language acquisition, Error detective game, Peer editing.

Vocabulary is essential for knowledge or language proficiency. It helps in construction of meaning out of the spoken and written words and makes it possible to communicate effectively with others. Therefore, developing and reinforcing vocabulary is an important component in language education or language acquisition, especially English learning. So, vocabulary is crucial because it enables learners to express themselves, raise inquiries, and comprehend others. A broad vocabulary includes the ability to assist both oral and written communication processes. For instance, having knowledge of antonyms and synonyms helps in descriptive writing and expressing oneself accurately [1,502].

A comprehensive vocabulary provides a firm basis for the perception and interpretation of difficult texts. It also helps to understand the subtleties of meanings, tone, and context in both languages. Vocabulary and grammar are complementary to each other. Mastering a language requires many words for the formation of many grammatical structures. For instance, verbs “run”, “ran” and “running” help learners know and apply the correct tense of verbs to the sentences.

Having a good vocabulary has a positive impact on one’s academic performance and undoubtedly helps to boost reading ability. Students who have a fit vocabulary are more likely to be successful in all subjects taught in the classroom. Direct instruction-teachers present new vocabulary words along with their definitions, grammar, and uses in context. For example, the word “benevolent” is taught with its meaning (kind and charitable), some near synonyms (kind-hearted, generous), and sample sentences. Examples of words in context – learners receive vocabulary items in a context, which gives them sense – stories, dialogues, real life cases and situations.

For instance, students learn how to name various dishes in a restaurant through a role-play game.

Thematic grouping-organizing vocabulary around themes helps learners make connections between related words. For example, teaching words related to weather: sunny, cloudy, stormy, humid, and forecast. Use of visuals and multimedia-pictures, videos, and flashcards reinforce vocabulary learning by associating words with images or sounds. For example, showing images of animals while teaching names like elephant, giraffe, and kangaroo. Reading and listening activities exposure to authentic materials, such as books, newspapers, podcasts, and movies, introduces learners to new vocabulary in context. For example, assigning a short story and asking students to highlight unfamiliar words for discussion. Frequent exposure to new words ensures retention. This can be achieved through flashcards, word walls, or vocabulary journals.

Byudjet muassasalari uchun uslubiy yondashuvlar moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, resurslardan foydalanish cheklovlarini va hisobot talablarini hisobga olishi kerak.

Byudjet sohasida xarajatlar hisobi auditi asos bo'ladigan asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:



- **Ob'ektivlik** - audit davomida mustaqillik va betaraflikni saqlash.
- **Tizimlilik** - xarajatlarni hisobga olish bilan bog'liq barcha jihatlarini qamrab olish.
- **Murakkablik** - barcha xarajatlarni hisobga olish jarayonlarini yagona kompleksda o'rganish.
- **Shaffoflik** - tahlil va baholash uchun ma'lumotlarning mavjudligi va ochiqligini ta'minlash.

Budjet muassasalarida audit va buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, jumladan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va byudjet tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham muhim o'rin tutadi. Byudjet muassasalari uchun uslubiy yondashuvlar moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, resurslardan foydalanish cheklovlarini va hisobot talablarini hisobga olishi kerak.

### Natijalar

Tadqiqotda davlat sektorida xarajatlar hisobi auditining nazariy va uslubiy asoslariga xos bo'lgan qator muammolar va xususiyatlar ko'rsatildi.

- **Buxgalteriya hisobi va auditning yagona standartlari yo'qligi.** Hozirgi vaqtda byudjet muassasalari uchun xarajatlarni hisobga olishning yagona standarti mavjud emas, bu xarajatlarni tahlil qilish va baholash jarayonini murakkablashtiradi.
- **Kadrlar malakasi muammolari.** So'rov shuni ko'rsatdiki, budjet hisobi sohasida mutaxassislarni tayyorlash darajasi ko'p hollarda zamonaviy talablarga javob bermaydi, bu esa audit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
- **Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning yo'qligi.** Ko'pgina byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobining eskirgan tizimlaridan foydalaniladi, bu esa tahliliy ishlarni murakkablashtiradi va audit uchun ma'lumotlarni taqdim etish samaradorligini pasaytiradi.

### Muhokama

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, byudjet sohasida xarajatlar hisobi auditining nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirishning bir qancha asosiy yo'nalishlarini belgilash mumkin.

• **Xarajatlarni hisobga olishning yagona standartini ishlab chiqish.** Yagona standartning joriy etilishi ma'lumotlarning solishtirilishi va shaffofligini yaxshilaydi, audit va tahlil jarayonini osonlashtiradi. Bunday standart byudjet hisobining o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan cheklangan moliyalashtirish va hisobot berishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

• **Auditorlar va buxgalterlarning malakasini oshirish.** Byudjet hisobi sohasidagi mutaxassislar uchun ta'lim dasturlari va kurslarini tashkil etish

buxgalteriya hisobi va audit sifatini oshiradi. Xodimlarning malakasini oshirish xatolardan qochishga va xarajatlarni nazorat qilish tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

•**Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish.** Buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish xatolar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi va tahlil va audit uchun hisobot ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishni ta'minlaydi. Zamonaviy raqamli yechimlarning joriy etilishi analitik hisob jarayonini soddalashtiradi va uning shaffofligini oshiradi.

•**Doimiy tashqi audit.** Auditning xolisligi va mustaqilligini oshirish uchun tashqi auditorlarni jalb qilish tavsiya etiladi. Bu xarajatlarni nazorat qilish sifatini oshiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlaydi.

### Xulosa

Byudjet muassasalarida xarajatlar hisobi auditi byudjet mablag'lari sarflanishining shaffofligi va asoslanishini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Auditning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, yagona buxgalteriya standartini ishlab chiqish, mutaxassislar malakasini oshirish va buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish byudjet muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Ushbu choratadbirlar byudjet hisobi tizimiga ishonchni mustahkamlash va davlat moliyasini boshqarish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bogataya, I.V., Kovalenko, A.Yu. Byudjet muassasalarida audit: uslubiy jihatlar // Davlat sektorida moliyaviy hisob va audit. - 2021 yil - 3-son. — 12-20-betlar.
2. Kondratenko, L.S. Byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobi va xarajatlarni nazorat qilish: nazariya va amaliyot // Buxgalteriya hisobi va audit masalalari. - 2020 yil - 4-son. — B. 33-42.
3. Miroshnichenko, N.V. Davlat sektorida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish muammolari va istiqbollari // Davlat resurslarini boshqarishga zamonaviy yondashuvlar. - 2019 yil - 2-son. — B. 27-35.
4. Polyakov, A.V. Byudjet muassasalarida audit xarajatlariga zamonaviy yondashuvlar: xalqaro tajriba va ichki voqeliklar // Davlat auditi jurnali. - 2022. - 5-son. — B. 45-52.

## BIOGEN ELEMENTLAR SINIFIGA KIRUVCHI , LITIY VA YODNING ORGANIZMGA SALBIY TASIRLARINI BARTARAF ETISH CHORA TADBIRLARI

*Raxmatullayeva Nigora Dilshod qizi*

*Jizzax politexnika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, biogen elementlar sinifiga kiruvchi, litiy va yodning organizmga salbiy tasirlarini bartaraf etish chora tadbirlari hamda, biogen elementlar xaqida umumiy tushunchalar, organizmga ta'sirlari, ilmiy manbalardan foydalangan xolda, biogen elementlarning ortib ketishi yoki yetishmovchiligidan yuzaga keladigan kasalliklar va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish orqali kasalliklarga qarshi kurashish usullari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Makroelementlar, Mikroelementlar, Ultramikroelementlar, Yod tanqisligi, Dipressiya, Maniya.

Biogen elementlar deb, tirik organizmdagi hayotiy jarayonlarda bevosita ishtirok etuvchi yoki shu moddalar tarkibiga kiruvchi biologik faol elementlar yoki biogen elementlarga aytiladi. Biogen elementlar s, p, d elementlarga bo'lib o'rganiladi. Ular, o'simliklar, hayvonlar va odamlar organizmi elementlardan iboratdir. Mendeleyev davriy sistemasidagi elementlarning 90 ga yaqini keng tarqalgan bo'lib, bu elementlar biogen sistemalat tarkibiga ham kiradi. Tabiatda tarqalgan elementlar odam organizmida ham tarqalgan bo'lib, ular odam organizmiga ko'p miqdorda, aksariyat xollarda kam miqdorda o'zlashtiriladi. Buning asosiy sababi tabiiy birikmalarning suvda eruvchanligi juda kichik bo'lganligi uchun organizmga kam miqdorda o'zlashtiriladi. Biogen elementlar hayotning asosiy qismi bo'lib, mavjudligi va miqdori organizmning salomatligi va ekologik muvozanatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Biogen elementlarning turlari: V.I Vernandskiy bo'yicha 3 guruhga bo'linadi .

1. Makroelementlar 10 -2 % ( O , C , H , N , P , S, Ca, Mg, Na ,Cl )
2. Mikroelementlar 10 -3 % ( I , Cu , Ag , F , Br, Sr , Ba , Co )
3. Ultramikroelementlar 10 -5 ( Hg , Au ,U , Ra , va boshqalar ) .

Ular, Hayo tuchun eng zarur elementlar hisoblanadi. Organizmda doimo mavjud. Bunday elementlar fermentlar, garmonlar, vitaminlar tarkibiga kiradi. Bu elementlar yetishmasligi organizmning faoliyatini buzilishiga olib keladi. Ularga C , H , N , P , S ,Ca , Mg , Na , Cl , K , I , Fe , Cu , Co , Zn , Mo , V elementlar kiradi. Organizm hayot faoliyatida ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan elementlardir. Ular doim odam va hayvon organizmida mavjud bo'lib, ularning biologik ahamiyati to'la



o`rganilmaga. Odam va hayvon organizmida aniqlangan, lekin miqdori va biologik ahamiyati to`liq aniqlanmagan elementlar tarkibiga: Sc ,Ti , In , La , Sm , W , Re , Th va boshqalar kiradi. Biogen elementlar elektron tuzulishiga ko`ra s , p , d turlarga bo`linadi . Ya`ni s elementlar Li , Na , K , Mg , Ca va boshqalar .S elementlar organizmda makromiqdorda bo`ladi va makrobiogen elementlar deyishimiz mumkin. S elementlarning kationlari inson organizmida 90 % deb olsak, 10%i boshqa metallarni tashkil qiladi. Li – odam organizmida doimiy ravishda uchraydigan mikrobiogen elementdir. Litiy organizmda oshqozon ichak sistemasi orqali o`zlashtiriladi. Litiy qonda va to`qimalarda to`planadi. U azot almashinuvini kuchaytiradi, mushaklardagi ammiak miqdorini kamaytiradi, to`qimalardagi nafas olish jarayonlariga ta`sir qiladi. Yurak-qon tomir xastaliklarini davolashda xam bu element birikmalarini tibbiy ta`siri aniqlangan. Litiy miqdorining buzilishi Na v K balansining o`zgarishiga olib keladi. Na ning ortib ketishi – dipressiya, kamayib ketishi – maniya holatlarini keltirib chiqaradi. Li ionlari ayrim xolatlarda Na ionlarini o`rnini olishi mumkin. Ana shu holatda podagra kasalligini davolashda yordam beradi. Bu kasallik suvda kam eriydigan siydik kislotasi ortib ketishi va mononatriyli tuzi hosil bo`lishiga asoslangandir. Organizmda urat (siydik kislotasi ) miqdori 3-7 mg/l bo`ladi. Qon va to`qimalarda bu ko`rsatgich ko`tarilishi ularni kristal cho`kmaga tushishiga sabab bo`ladi. Natijada bo`g`imlarda Na urat kristallari to`planib tez takrorlanuvchan yallig`lanishlarni paydo qiladi. Juda og`riqli podagra kasalligi vujudga keladi.Yurak -qon tomir xastaliklarini davolashda xam bu element birikmalarini tibbiy ta`siri aniqlangan.

I (yod ) -odam tanasidagi umumiy miqdori 20-25 mg ni tashkil qiladi. Moddalar almashinuvi boshqarishda muhim rol o`ynaydi. Yodning asosiy qismi qalqonsimon bezda to`planadi, mushaklar, teri va suyaklarda saqlanadi. Qalqonsimon bezda 6 mg ni tashkil qiladi. Qonda (1,2 \* 10<sup>-5</sup> %). Suyakda (3,0 \*10<sup>-5</sup>%).Qon zardobida, eritrosetlarda yod saqlanmaydi.

Jahon sog`liqni saqlash tashkilotining ma`lumotiga ko`ra, dunyoaholisining 1/3 qismida yod tanqisligi mavjud. Hozirgi vaqtda qalqonsimon bez kasalliklari bilan kasallanga odamlar ko`p. Qalqonsimon bez atigi 15-20 gr keladigan mitti a`zo bo`lib, bo`yinning old qismida joylashgan. Yod qalqonsimon bez garmonlarining tarkibiy qismidir va tiroksin garmonini ishlab chiqaradi. Qalqonsimon bez yodni organizmga ovqat va suv orqali tushgan oziq-ovqat maxsulotlaridan oladi. Organizmga tushgan yodning yarmidan ko`pi siydik orqali chiqib ketadi. Yetarli miqdorda garmon ishlab chiqarilishi uchun yetarli miqdorda yod qabul qilinishi lozim. Kattalarda yod tanqisligi qalqonsimon bezni ortiqcha ishlashga majbur qiladi va bez kattalashadi quyidagi muammolarni keltiradi: qalqonsimon bez kasalliklari, bepushtlik, aqliy va jismoniy ish qobiloyatining pasayishi, seruyqulik, qabziyat, tez tez shamollash, yurak

hastalıkları, soch to`kilishi, tirnoqlarning sinuvchanligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Ayollarda erkaklarga qaraganda ko`proq buqoq kasalligi uchraydi. Homilador ayolda yod tanqisligi homilaning tushishi yoki bolaning o`lik tugilishi, tug`ma kasalliklarga, aqliy zaiflik, kar-soqovlik, g`ilaylik, pakanalikka olib keladi. Bolalar va o`smirlarda qalqonsimon bez susayishi jismonan rivojlanishdan qolishga sabab bo`ladi. Yod organizmda kam yoki ko`p bo`lib ketishini oldini olish uchun yodli preparatlar, tarkibida yod mavjud bo`lgan oziq ovqatlarni iste`mol qilish, yodlangan osh tuzi, dengiz o`tlari, dengiz baliqlari, rezavor va mevalar, xurmo, uzum qulupnay, yong`oq ko`p yodni o`z ichiga oladi. Kurka go`shti, tuxum, grechka, qo`ziqorin, kartoshka, kefir, lavlagi, turp tarkibida yod ko`p emas. Xozirgi vaqtda atrof muhitni ifloslaydigan sanoat chiqindilari yoki pestitsidlar qalqonsimon bezga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmaydi . Shuni ham aytish joizki ota-onasidan birida yod tanqisligi bo`yicha muammo bo`lsa farzadiga o`tishi mumkin yoki muhit tufayli yuzaga keladi . Inson o`zida yod kamayganligiga shubxa qilsa ,bo`yin sohasida shishish bo`lsa , o`zboshimchalik bilan yodli preparatlarni turli dozalarda mutaxasis ko`rsatmasiz iste`mol qilish yomon oqibatlarga olib keladi . Shuning uchun endokrinolog bilan maslaxatlashish yaxshi. Yod tanqisligi dengiz bo`lmagan hududlarda ko`p uchraydi . Togli hududlarga borib turish , yodga boy dengiz mahsulotlari , yodlangan tuz, meva va sabzavotlarni yetarli miqdorda iste`mol qilib , sog`lom turmush tarziga e`tibor berib , stressni kamaytirib jismoniy faollikni oshirish orqali organizmda yod yetarli bo`lishini amalga oshiramiz .Yod yetishmasligini davolab buqoq kasalligini rivojlanishini oldini olgan bo`lamiz. Podagra kasalligini oldini olish uchun puringa boy baliq , go`sht va go`sht mahsulotlari ,Shirin nonlar , jigar , mol go`shti , mahsulotlarni cheklash . Spirtli ichimliklar (pivo ,vino , qizil sharob ) , tarkibi shirin bo`lgan ichimliklar siydik kislotasi miqdorini oshiradi. Ko`p miqdorda suv iste`moli , stresni kamaytirish orqali kasallikka qarshi kurashish mumkin. Agar siydik kislotasi miqdori ko`p bo`lsa shifokor nazorati ostida kerakli bo`lgan preparatlarni iste`mol qilish mumkin. Kasallikning ilk belgilari paydo bo`lganda vaqtda shifokorga ko`rinish , kasallik asoratlari paydo bo`lishiga ta`sirini ko`rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 Alimxodjayeva N , T ., Ikramova Z. A ., Suleymanova G. G ., Tadjiyeva X. S Tibbiy kimyo 1-qism Bioanorganik kimyo .Toshkent -2017.
- 2 A. D Djurayev , U. A Baltabayev . Tibbiy kimyo 1-2 tom “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti . Toshkent -2018.
- 3 Professor Sobirjon Masharipov . Tibbiy kimyo o`quv qo`llanma ,Toshkent -2018.

## UNDERSTANDING AND IMPLEMENTING MULTIPLE CHOICE READING QUESTIONS IN CEFR MULTILEVEL EXAMS

*Teacher: Kholbayev Khushbek Ashirbekovich*  
*SamSIFL Payariq foreign languages faculty FLL*  
*22.01-group students: Abdusattorova Mohigul Jamshid qizi*  
*Karimov Turgunboy Komiljonovich*

### Abstract

The target of the study in understanding and implementing the multiple-choice questions is to define the concept of working with this type of reading question and to improve the comprehension skills of learners. By analyzing the reading other language exams and scientists' exemplary works of educational approaches allow to identify the majority of CEFR candidates tend to practice with various methods. However, the number of learners have not found specific methods to utilize during the tests of multilevel. The article shares the author's opinion that to characterize the concept of multiple-choice questions(MCQ), key points of answering the questions, and providing new approaches and methods to teach learners MCQ through gaming. The conclusion about the investigation and implementation of this project will show influence on Uzbek learners of English language to identify more about CEFR exam papers.

### Абстракт

Целью исследования по пониманию и реализации вопросов с несколькими вариантами ответов является определение концепции работы с этим типом вопросов для чтения и улучшение навыков понимания учащихся. Анализируя чтение других языковых экзаменов и образцовые работы ученых по образовательным подходам, можно выявить, что большинство кандидатов CEFR склонны практиковаться с использованием различных методов. Однако ряд учащихся не нашли конкретных методов для использования во время многоуровневых тестов. В статье разделяется мнение автора о том, что необходимо охарактеризовать понятие вопросов с несколькими вариантами ответов (MCQ), ключевые моменты ответа на вопросы, а также предложить новые подходы и методы обучения учащихся MCQ посредством игры. Заключение об исследовании и реализации этого проекта окажет влияние на узбекских изучающих английский язык, чтобы они могли больше узнать об экзаменационных работах CEFR.



## Introduction

In the field of language assessment, the ability to characterize reading comprehension effectively is important, especially within the structure of the Common European Framework of Reference for Languages. In this case, the first step toward researching MCQ is to engage CEFR exam standards as integral part of reading comprehension which leads to learn English language more detailed. As educators strive to measure learners' proficiency among different levels – from basic to advanced students the use of MCQs has emerged as one of the productive and popular. It points to meaning that MCQs is not only streamline the assessment process but also provide insights into a learner's understanding of texts, vocabulary, and inference skills. This article delves into the details of multiple choice reading questions tailored to CEFR multilevel exams, offering practical strategies and experience of both teachers and learners.

Recent experimental studies have highlighted the productivity of MCQs in enhancing student engagement and learning results. For example, researchers have found that well-structured MCQs can improve retention and understanding by prompting learners to actively recall information rather than passively recognize it. Moreover, creative approaches combining with methods which based on games with traditional assessment methods have shown promising outcomes. Educators can make the learning process more enjoyable by implementing innovative methods and games, and so, students may deeply engage with the material.

### Importance of Aligning Questions with CEFR Levels

The CEFR exam provides a comprehensive framework of assessing language efficiency in 6 distinct levels, from A1(beginner) to C2 (proficient). To reflect accurately learner's reading comprehension ability , perceiving these levels is important. It allows educators to get satisfactory results during teaching process. As for beginners, simple texts, such as signs, menus, and short descriptions should be given and students can identify basic information or vocabulary. The researcher in the field of language assessment Dr. Lyle F Bachman has extensively studied the validity and reliability of language testing methods, including MCQ. In his book, Bachman states: “The validity of a language test is contingent upon the degree to which the test tasks reflect the language use in real world contexts, and this requires careful consideration of the proficiency levels of the test-taker”[1]. It points out the critical role that understanding CEFR levels plays in creating effective assessments that accurately measure reading skills.

### Examples of studies on investigated educational approaches

One of the experiments is The Testing Effect examined by Roediger, H.L., and Butler, A. C in 2011[2], the researchers examined how retrieval practice, such as

answering MCQs, enhances long-term retention of information. The study found that students who practiced retrieval through MCQs performed significantly better on later tests compared to those who engaged in restudy. This suggests that MCQs not only assess knowledge but also reinforce learning by promoting active recall. In other terms, in order to getting effectiveness on reading several other assessment methods and instructional strategies have demonstrated significant benefits for students learning and engagement. For instance, formative assessments provide ongoing feedback, enhancing engagement and allowing for adaptation, or collaborative learning that promotes various perspectives and also social skills. In addition, project-based learning encourages critical thinking through real world problem-solving.

In other language tests, learners have defined the actual ways to solve the MCQs, there are given 5 strategies for the process:

- 1) Read the questions
- 2) Answer the question without looking at the options
- 3) Identify key words
- 4) Eliminate the incorrect answers
- 5) Manage your time ( the Robert Gillespie Academic skills centre)[3].

MCQs are fairly simple to complete but it is easy to get tricked into picking the wrong answer. The aim of this type of questions is to test language learners if they can understand the main idea of the paragraph, use detailed reading to differentiate between several possible answers, and scan for specific information.

### **Innovative Gaming Methods for solving MCQS**

In the language learning classes new methodologies and approaches can help organizing the learning with engaging environment. In the classroom, lesson can be managed by teacher as the teacher provides with each student a card which is contain carefully selected paragraph. This initial activity demand students to read and translate the text together, creating collaborative environment. Then, they identify and write down new vocabulary words, this method aligns with the grammar-translation approach, often more teacher-centered, as the educator guide the students through the translation process. Next step includes dividing students into 2 groups and giving them cards labeled A,B,C, and D, which will be used in subsequent activity. In the 3<sup>rd</sup> step the teacher presents a PowerPoint presentation that includes MCQS related to the paragraph they have just worked on. This game format shifts the lesson towards a more students-centered approach, encouraging active participation of each student.

The game has numerous benefits , firstly, the game fosters critical thinking, as students analyze the multiple-choice options and discuss each answer. By actively engaging students are not merely passively receiving information but are actively involved in the learning process.

Overall, this lesson structure not only enhances language acquisition but also cultivates a positive classroom atmosphere where students feel empowered to participate and learn from one another. By integrating these collaborative and gaming methods into MCQ lessons, educators can create a dynamic and effective learning environment that promotes both academic and social development.

### Conclusion

In conclusion, this study emphasizes the crucial role of multiple-choice questions (MCQs) in assessing reading comprehension within the framework of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). By aligning MCQs with CEFR levels, educators can ensure more accurate and effective assessments of language learners' abilities. Through the analysis of educational approaches and experimental studies, it is evident that MCQs not only assess knowledge but also promote active learning and retention, particularly when combined with innovative strategies such as gaming.

The integration of game-based methodologies fosters engagement and critical thinking, offering a more dynamic and student-centered approach to learning. By incorporating such strategies, learners can develop stronger comprehension skills, while educators create an environment conducive to collaboration and knowledge sharing.

Ultimately, understanding and implementing MCQs effectively can significantly improve the proficiency of learners across different CEFR levels, with the added benefit of enhancing their motivation and engagement. This approach has proven especially impactful for learners in Uzbekistan, offering valuable insights into CEFR exam papers and contributing to the development of more effective language assessment practices.

### References

1. Roediger, H. L., & Butler, A. C. (2011). The critical importance of retrieval for learning. *Science*, 332(6029), 999-1001. <https://doi.org/10.1126/science.1208608>
2. Gillespie, R. (n.d.). Academic Skills Centre: Strategies for Answering Multiple Choice Questions. [Robert Gillespie Academic Skills Centre](<https://www.uoguelph.ca/acs/>).
3. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7-74. <https://doi.org/10.1080/0969595980050102>
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Psychologist*, 44(2), 95-104. <https://doi.org/10.1080/00461520902809837>



5. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. The Autodesk Foundation. Retrieved from [https://www.bie.org/object/document/research\\_summary](https://www.bie.org/object/document/research_summary)

6. Dunlosky, J., Rawson, K. A., Marsh, E. J., Nathan, M. J., & Willingham, D. T. (2013). Improving students' learning with effective learning techniques: Promising directions from cognitive and educational psychology. *Psychological Science in the Public Interest*\*, 14(1), 4-58. <https://doi.org/10.1177/1529100612453266>

**EASY WAYS OF MAKING PARAGRAPHS IN ENGLISH**  
INGLIZ TILIDA PARAGRAPH TUZISHNI OSON USULLARI  
ЛЕГКИЕ СПОСОБЫ СОЗДАНИЕ АБЗАЦА ПО-АНГЛИЙСКИ

*SamDCHTI Payariq xorijiy tillar fakulteti*  
*“Umumiy fanlar” kafedrasida stajyor-o’qituvchisi:*  
**Xolboyev Xushbek Ashirbekovich**  
*Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi*  
*oliy toifali ingliz tili fani o’qituvchisi:*  
**Nurmuxamedova Iroda Aynabekovna**

### **Annotation**

This article pays great attention to the methods of teaching as well as learning how to make a relevant paragraph in the English language and written according to new technologies.

All differences and advantages of new methods described widely and exactly in this article and the teacher tries to give samples from his experience, which are considered very important for both teachers and learners.

**Key words:** simple statements, simple structures, non-finite forms of the verb, verb tenses, gerund, infinitive, participles, nouns, singular predicate.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tilida tegishli paragraf yaratish va yangi texnologiyalar asosida yozishni o'rganish bilan birga o'qitish usullariga katta e'tibor qaratilgan.

Yangi usullarning barcha farqlari va afzalliklari ushbu maqolada keng va aniq tasvirlangan va o'qituvchi o'z tajribasidan namunalar berishga harakat qiladi, bu ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** sodda gaplar, sodda tuzilmalar, fe'lining cheksiz shakllari, fe'l zamonlari, gerund, infinitiv, kesim, ot, birlik predikat.

### **Аннотация**

В этой статье большое внимание уделяется методам обучения, а также обучению тому, как составить соответствующий абзац на английском языке и написать его в соответствии с новыми технологиями.

Все отличия и преимущества новых методов широко и точно описаны в данной статье, а преподаватель старается привести образцы из своего опыта, которые считаются очень важными как для преподавателей, так и для учащихся.

**Ключевые слова:** простые высказывания, простые конструкции, неличные формы глагола, времена глагола, герундий, инфинитив, причастия, существительные, сказуемое единственного числа.

Paragraphs are medium-sized units of writing, longer than sentences, but shorter than sections, chapters, or entire works. Because they connect the “small” ideas of individual sentences to a “bigger” idea, paragraph structure is essential to any writing for organization, flow, and comprehension.

Students have a lot of questions when it comes to writing a paragraph: How many sentences should you use? How do you transition within a paragraph? When do you end a paragraph? Etc. Below we explain everything you need to know about paragraph structure to write like an expert, including several paragraph examples.

How is a paragraph structured?

Before we dive into paragraph structure, let’s start with paragraph meaning. A paragraph is an individual segment of writing that discusses a central idea, typically with more than one sentence. It even has its own paragraph symbol in copyediting, called the *pilcrow* (¶), not to be confused with the section symbol called the *silcrow* (§) that’s common in legal code.

Here we focus mainly on paragraph structure, but feel free to read our ultimate guide to paragraphs for more of the basics.

Each body paragraph consists of several sentences to join together with the help of conjunctions or link words ,to prove a unique concept of the topic.

Types of paragraphs

Depending on the kind of writing you’re doing, you may need to use different types of paragraphs. Here’s a brief explanation of the common paragraph types most writing deals with.

**Expository:** Common in nonfiction and all types of essays, expository paragraphs revolve around explaining and discussing a single point or idea.

**Persuasive:** Just like expository paragraphs, persuasive paragraphs focus on discussing a single point; however, they support opinions instead of facts.

**Narrative:** When telling a story, a narrative paragraph explains an action or event. Each new sentence furthers or expands upon the action by providing new information.

**Descriptive:** Also common in storytelling, descriptive paragraphs focus on describing a single topic, such as a person or an environment. Each new sentence adds a new detail about that topic.

- **A Topic sentence** ought to be followed with justifications.



• **Justifications** are types of sentences serving to prove the main ideas with the help of other sentences.

• *My mum is very kind (topic sentence) whenever you meet her, she is busy to help someone. (justification)*

Paragraph creating can be divided into the following groups.

### Paragraph types

gerund

infinitive

participle

noun

### GERUND

Gerund is a type of non-finite forms of the verb which has 50% nominal and 50% verbal meaning.

We can use gerund at the beginning of the sentence as a subject which is followed by singular predicate.

• **Reading**(gerund) original texts(distractors) a lot, **leads**(predicate) to enlarge one's vocabulary systematically.

• You can start your body paragraph with gerund using it as a topic sentence.

• *Having been glued on the screen for a long time, (topic sentence) makes his eyes feel tired and consequently he tends to go to bed too late to get up next morning early and in the result he misses attending several lessons on time which leads his name to be in the list of withdrawn students. (justification)*

### INFINITIVE

Infinitive is a type of non-finite forms of the verb which has 50% nominal and 50% verbal meaning.

We can use **infinitive** at the beginning of the sentence as a **subject** which is followed by **predicate**.

• **To become** (infinitive) a member of the students' union(distractors) , **demand**s(predicate) several urgent document fillings. Talabalar birlashmasiga a'zo bo'lish (uchun) bir nechta to'ldiriladigan xujjatlar talab etiladi.

• You can start your body paragraph with infinitive using it as a topic sentence.

• *To be (infinitive) a skillful tutor, demands a lot of hard work on one's subject. (topic sentence) Furthermore, patience and understanding learners' wish are also essential key aspects of being the best teacher. Therefore, various subjects are taught at institutions specialized to prepare educators. (justifications)*

Mostly gerund and infinitive can be used in different form according to the meaning of the sentences such as: for instance perfect form is usually followed by the prepositions "for" , "since"

*Having lived here for several years, I can find out any street easily.*

## PARTICIPLES

Participle is a type of non-finite forms of the verb which is both 50% adjective and 50% verb.

We can use **participles** at the beginning of the sentence by following the clause.

**Having lived (participle)** in this are for a long time, James can find out any street easily(**clause**).

- You can start your body paragraph with participle using it as a topic sentence.
- **Playing (participle) computer games intermittently.(topic sentence)** He has some problems with his eyes, sometimes clarifying any objet not far from him is likely to seem a bit strange and in the result he has to go to the doctor .(**justifications**)

## NOUN

Nouns can be used in the prepositional phrase to fulfill various functions. In this case, verifying a singular or a plural predicate seems a bit difficult. Learner sought to clarify the noun standing before the preposition.

- **The importance(noun)** of these remarkable issues, makes (**predicate**) me think deeply.
- You can start your body paragraph with noun using it as a topic sentence.
- The popularity of my hometown, always draws a number of tourists attention to it(**topic sentence**).
- In spite of having myriads of luxury inns, foreigners are often likely to be seen seeking convenience accommodation around the city (**justification**)

All in all, knowing how to make paragraphs like these can increase learners score while being checked in IELTS test. If you use elementary vocabulary in your writing context with above cited structure, it is equalized to the sample which is written with great vocabulary.

simple	paragraph making structure	good vocabulary
If I watch coast views, I don't feel bored	Watching coast views prevents me from feeling bored	In the case of feeling disappointed, I tend to observe coast charming scenery to avoid the situation.

As an ordinary teacher, I would like to stress that each instructor ought to try to encourage their learners by the way as given above and it will show its result in the forthcoming periods.

**Literatures:**

1. “Matn tilshunosligi” Muhabbat Qurbonova , Ma’rufjon Yo’ldoshev. Toshkent Universiteti nashriyoti 2014
2. “Matn tilshunosligi” T. H Asadova . Buxoro “Durdona ” nashriyoti 2023
3. “EXAM SKILLS FOR TEACHERS AND LEARNERS OF ENGLISH” Komil Jalilov Toshkent Turon Zamin Ziyo 2016
4. MATN TAVSIFI VA MATN TURLARI To’lanboyeva Mohinur Xurshidbek qizi *Andijon davlat chet tillari universiteti*



## ОНА ТИЛИ VA ADABIYOT DARSLARIDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Mullajonova Margubaxon Sultonaliyevna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, ona tili va adabiyot darslarida til ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Bunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va ularning o'z ona tilini mukammal o'zlashtirishlariga ko'maklashuvchi pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlar o'rni ham ko'rib chiqilgan.

**Abstract:** This article examines effective methods for developing language skills in native language and literature classes. It analyzes pedagogical approaches that help students improve their thinking skills, form a culture of communication, and master their native language. The role of modern technologies and interactive methods is also considered.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, adabiyot, til ko'nikmalari, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar.

**Keywords:** Mother tongue, literature, language skills, pedagogical approach, interactive methods.

Ona tili va adabiyot darslari har bir millatning ma'naviy va madaniy rivojlanishida asosiy o'ringa ega. Til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyat va qadriyatlarning asosi hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida til ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu sababli o'quvchilarning ona tilini puxta o'zlashtirishi va adabiyotga qiziqishini oshirish zarur. Til ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga: O'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish, Matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Yozma va og'zaki nutqni mustahkamlash uchun turli topshiriqlarni qo'llash kerak bo'ladi. Interfaol metodlardan foydalanish uchun esa quydagi o'yinlar qo'llaniladi:

**Rolli o'yinlar:** Bu darsda rolli o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash hamda ularning faolligini oshirish mumkin bo'ladi. **Debatlar:** O'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun mavzularga oid bahs-munozaralar tashkil qilish kerak bo'ladi.

**Klaster va klasterlash usuli:** Bu usulda, murakkab mavzularni bo'laklarga ajratib o'quvchilarga tushuntirish lozim bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali dars jarayonlarini yana yaxshi tashkil etish mumkin bo'ladi. Onlayn platformalar (Quizlet, Kahoot) orqali darslarni qiziqarli o'tish. Elektron darsliklar va

audio materiallardan foydalanish. Interfaol doskalar yordamida vizual o'rgatishlar misol bo'ladi. O'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish hamda, differensial yondashuv asosida har bir o'quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish kerak va mustaqil ishlash uchun alohida vazifalar berish lozim bo'ladi. Birinchi navbatda, ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi: Nutq faoliyatini rivojlantirish bunda, Muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ya'ni, Savol-javoblar, muhokama, bahslar orqali o'quvchilarni erkin fikr bildirishga rag'batlantirishlar kiradi. Dialog va monologlar tuzish esa, Kundalik hayotiy mavzularni tanlab, o'quvchilarni o'z fikrlarini izchil va tushunarli ifodalashga o'rgatishdir. Yozma ko'nikmalarni rivojlantirish uchun esa, o'quvchi yoshlarning turli mavzularda insho yozishlarini talab qilish kerak. Mavular esa, badiiy va mavzuli insholar yozdirish orqali o'quvchilarning tasavvuri va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin bo'ladi. Undan keyin, Lug'at boyligini oshirish ham, Har bir mavzuga oid yangi so'z va iboralarni o'rgatish va ular asosida mashqlar tuzish kerakdir. Bu usullar dars jarayonini yanada mazmunli, qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalari, balki ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyati ham rivojlanadi. Interfaol metodlardan biri muammoli ta'lim usuli bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, mavzuni tahlil qilish va o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning bilim olish jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Interfaol metodlarni tashkil etish qoidalari quyidagilardan iborat: Dars boshlanishida aniq maqsad belgilanadi, masalan, mavzuga oid muammolarni o'rganish yoki yangi bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Adabiyot darsida o'quvchilarni qiziqtirish va darsga jalb qilish uchun quyidagi yangi metodlarni sinab ko'rishingiz mumkin: "Hot seat" usuli: Bitta o'quvchi qahramon rovida savollarga javob beradi, boshqa o'quvchilar esa unga savollar beradilar. Texnologiyalarni qo'llash uchun esa, Multimedia prezentatsiyalar: Asar yoki muallif haqida qisqa videolar, rasmlar va animatsiyalar ko'rsatish kerak bo'ladi. Keyin esa, dars jarayonlarini yanada yaxshilab, o'quvchilarni jonlantirish uchu, Onlayn testlar va viktorinalar o'tkaziladi. Unda, Kahoot, Quizizz yoki Google Forms yordamida interaktiv testlar tashkil qilish kerak bo'ladi. Keyin barcha o'quvchilarga, asar davomini yozish topshirig'i beriladi. O'quvchilarga asar voqealarini o'z tasavvurlariga ko'ra davom ettirish yoki o'zgartirishni taklif qilishdan iboratdir. Har bir guruhga asardagi muayyan mavzuni tahlil qilish va taqdimot qilish topshirig'ini berish. Asar voqealariga mos keladigan rasmlar yoki xaritalarni chizdirish va asarni zamonaviy hayot bilan solishtirish, o'quvchilarga asar voqealarini o'z hayotlariga bog'lash imkoniyatini yaratish

kerakdir. Hot Seat – bu o‘quv yoki trening jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv usul bo‘lib, unda bir ishtirokchi “issiq o‘rindiqa” o‘tirib, savollarga javob beradi yoki muayyan masalani hal qiladi. Bu usul odatda quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi: Guruh a‘zolarini faollashtirish va ular bilan jonli muloqotni tashkil qilish. Shaxsning fikrlash qobiliyatini va bilimlarini sinash. Qolgan ishtirokchilar savol berish yoki muhokamada ishtirok etish orqali jarayonga jalb qilinadi. Yangi g‘oyalar va qarorlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu o‘yin qanday amalga oshiriladi? Degan savolga quyidagicha javob beramiz.

"Issiq o‘rindiqa" egasi tanlanadi: Bu shaxs mavzu bo‘yicha gapiradi yoki savollarga javob beradi.

Savollar yoki muammolar taklif etiladi: Qolgan ishtirokchilar o‘z savollari yoki qarashlarini bildiradilar.

Fikr almashish va tahlil: Javoblar baholanadi, muhokamalar davom etadi.

Xulosalar chiqariladi: Mashg‘ulot oxirida olingan bilim va tajribalar umumlashtiriladi.

Bu usul sinfda, treninglarda yoki biznes muhokamalarda muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin. Muhokama: Guruhlar natijalarini taqdim etadi va umumiy xulosaga keladi. Bu metodlar o‘quvchilarni mustaqil o‘rganish va ijodkorlikka undaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, til ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat ta‘lim, balki shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyatiga ham xizmat qiladi. Ammo bu jarayonda o‘qituvchining yondashuvi va o‘quvchilarning qiziqishi muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab maktablarda interfaol metodlardan foydalanish yetarli emas va darslar bir xillikdan chiqmaydi. Demak, unga yechim va takliflar: Interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni kengroq qo‘llashni tavsiya etaman. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini ko‘paytirish, hamda o‘quv dasturiga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish lozim bo‘ladi. Ushbu interfaol metodni tashkil qilishda o‘qituvchi quyidagilarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi: Muammoli vaziyat yaratish: Ya‘ni bunda, darsning boshida mavzu bilan bog‘liq qiziqarli muammo yoki savol beriladi. Masalan, o‘quvchilarga hayotiy misol yoki nazariy masala taklif qilinadi, bu ulardan oldingi bilimlari asosida yangi yechim topishni talab qiladi. O‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash uchun, o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, o‘zaro bahs-munozara orqali muammoni hal qilish usullarini izlashadi. Bu ularning fikrlash darajasini oshirishga yordam beradi. Natijalarni muhokama qilishda, guruhlar o‘z xulosalarini taqdim etib, boshqa guruhlarining fikrlarini tahlil qiladi va umumiy yechimga keladi. O‘qituvchi bunga rahbarlik qiladi. O‘qituvchi guruhlarini boshqaradi, ammo javoblarni tayyor shaklda bermaydi, balki ularni mustaqil yechim topishga undaydi. Bu metod o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va



mavzuni hayotiy misollar bilan bog‘lash orqali bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. - T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 2 - qism. - T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
4. \*Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot . – T.: "Sharq", 2014. B.17
5. To'rayev B., Jo'raqulova G. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
6. Ahmadjonova D. Interfaol metodlar asosida dars o'tish. Samarqand, 2020.
7. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha qo'llanmalar. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2023.

## ТА'ЛИМ -TARBIYA JARAYONIDA PSIXOLOGIYANING O'RNI

ADCHTI

*Roman-german va slavyan tillari fakulteti  
Fransuz tili yo'nalishi 101- guruh talabasi  
Sodiqov Javlonbek O'tkirbek o'g'li*

**Annotatsiya:** Ta'lim va tarbiya jarayoni inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonda psixologiyaning o'rni beqiyosdir, chunki u ta'lim jarayonining barcha jihatlarini, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, ta'limning samaradorligini oshirishda yordam beradi. Ushbu maqolada biz psixologiya, o'z navbatida, ta'lim jarayonini tushunish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etishi haqida ma'lumotlar beramiz.

**Kalit so'zlar:** *o'quvchi psixologiyasi, faol ta'lim, differensial ta'lim, psixologik nazorat va boshqaruv, individual yondashuv, motivatsiya.*

**Аннотация:** Процесс воспитания и обучения играет важную роль в жизни человека. Роль психологии в этом процессе неocenim, поскольку она помогает улучшить все стороны образовательного процесса, взаимоотношения между учениками и преподавателями, а также эффективность образования и практические знания, необходимые для понимания и совершенствования образовательного процесса.

**Ключевые слова:** *психология учащихся, активное обучение, дифференцированное обучение, управление, индивидуальный подход, мотивация.*

**Abstract:** The process of education and training plays an important role in human life. The role of human psychology in this process is invaluable, because it helps to improve all aspects of the educational process, the relationship between students and teachers, as well as the effectiveness

Of education. Psychology, in turn provides the theoretical and practical knowledge necessary to understand and improve the educational process.

**Keywords:** *student psychology, active education, differential education, psychological control and management, individual approach, motivation.*

Ta'lim va tarbiya jarayoni inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonda psixologiyaning o'rni beqiyosdir, chunki u ta'lim jarayonining barcha jihatlarini, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, ta'limning samaradorligini oshirishda yordam beradi. Psixologiya, o'z navbatida, ta'lim

jarayonini tushunish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etadi.

- Ta'lim — bu bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni, o'quvchilarni o'z imkoniyatlarini to'liq ochishga undaydi.

- Tarbiya — bu axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatish jarayoni, shuningdek, shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Psixologiyaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni quidagilardan iborat:

### 1. O'quvchi psixologiyasi:

O'quvchi psixologiyasi ta'lim jarayonining asosiy jihatlaridan biridir. Bu o'quvchilarning individual farqlari, motivatsiyasi, hissiy holati va o'z-o'zini anglashini o'rganadi. O'quvchilarning o'ziga xos fikrlash uslublari va o'rganish usullarini tushunish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

#### 1.1. O'quvchilarning motivatsiyasi:

Motivatsiya psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. O'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi ularning muvaffaqiyatini belgilaydi. Psixologik nazariyalar, masalan, Maslovning ehtiyojlar piramidasi<sup>1</sup> va Herzbergning ikki omil nazariyasi, motivatsiyani tushunishda muhim ahamiyatga ega.

### 2. O'qituvchi psixologiyasi.

O'qituvchilar o'z o'quvchilarining psixologik holatini tushunishlari zarur. O'qituvchilar o'z psixologik bilimlarini qo'llab, o'quvchilarga yanada samarali ta'lim bera olishadi.

#### 2.1. O'qituvchining rolini o'rganish.

O'qituvchining roli ta'lim jarayonida juda muhimdir. O'qituvchilar o'zlarining hissiy intellektlarini rivojlantirib, o'quvchilar bilan samarali aloqalar o'rnatishi kerak. Daniel Golemanning hissiy intellekt nazariyasi o'qituvchilar uchun muhim ko'rsatma bo'lishi mumkin<sup>2</sup>.

### 3. Ta'lim usullari va psixologik asoslar.

Psixologiya ta'lim jarayonida qanday usullarni qo'llash kerakligini belgilaydi. Ta'lim usullari o'quvchilarning psixologik holatiga mos kelishi zarur.

#### 3.1. Faol (aktiv) ta'lim.

Faol ta'lim usuli o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu usul, o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etishiga, muammolarni hal qilishga va guruhda ishlashga yordam beradi<sup>3</sup>.

#### 3.2. Differensial ta'lim.

<sup>1</sup> Маслов А.Х. Инсон мотивацияси назарияси. – Психологик Шарх, 1943

<sup>2</sup> Големан Д. Хиссий интеллект: ИКдан кўра муҳимроқ бўлиши мумкин. – Бантам Букс, 1995.

<sup>3</sup> Колб Д.А. Тажрибавий ўрганиш: Ўрганиш ва ривожланиш манбаи сифатида тажриба. – Прентисе Халл, 1984.



